

**O‘ZBEKISTOB RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM VA
INNOVATSIYA VAZIRLIGI**

**SHARAOF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PULATOVA MUATTAR KURAKBOYEVNA

**UMUMTA’LIM MAKTABLARI
O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARGA
O‘QUV STRATEGIYALARINI O‘RGATISH
KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

Samarqand - 2025.

UO‘K: 37.022

BBK: 74.262.0

M.K.Pulatova. Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining o‘quvchilarga o‘quv strategiyalarini o‘rgatish ko‘nikmasini rivojlantirish // Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, – “ACCESS SERVICE” nashriyoti, 2025-y. – 68 bet.

Mas’ul muharrir: G.Fayzullayeva. p.f.d., dots.

Taqrizchilar: A.Ibragimov. p.f.d, prof.

K.Hasanova. p.f.n, prof.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada bildirilgan taklif va tavsiyalardan umumta’lim maktablari o‘qituvchilari fanlarni o‘qitishda o‘quv strategiyalaridan (learning strategies) foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliyotda, qo‘llanmalar hamda o‘quv uslublarining mazmunini boyitish va takomillashtirish bo‘yicha ishlarda foydalanish mumkin.

Uslubiy qo‘llanma Pulatova Muattar Kurakboyevnaning “Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida o‘quvchilarni o‘quv strategiyalariga (learning strategies) o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirish“ pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi materiallari asosida tayyorlandi.

ISBN: 978-9910-8773-8-4

Mazkur uslubiy qo‘llanma Samarqand VPMM kengashining 2025-yil, 27-fevraldagi 1-sonli, bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etildi.

©M.K.Pulatova
©“ACCESS SERVICE” nashriyoti

MUNDARIJA

KIRISH	4
I qism. O‘qituvchilarda o‘quvchilarni o‘quv strategiyalariga o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	16
Zamonaviy ta’lim tendensiyalari va islohotlarning asosiy yo‘nalishlari. Strategik yondashuv tushunchasi, mohiyati va tuzilmasi	16
Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga o‘quv strategiyalarini o‘rgatishning resurslari, turlari va shakllarini integrasiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari	23
O‘quvchilarga o‘quv strategiyalarini o‘rgatish faoliyatini loyihalashda nazariy yondashuvlar va prinsiplar hamda tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari, amalga oshirish bosqichlari	31
II qism. O‘quvchilarni o‘quv strategiyalariga o‘rgatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va didaktik imkoniyatlari	38
5,6- sinf o‘quvchilariga fanni oson o‘zlashtirishga yordam beruvchi o‘quv strategiyalarini o‘rgatishning mazmuni va imkoniyatlari	38
O‘quvchilarga o‘quv strategiyalarini o‘rgatish jarayonining individuallashtirish darajalari. O‘quv jarayonini strategik yondashuv asosida loyihalash. O‘quvchilarga o‘quv strategiyalarini o‘rgatish jarayonini individuallashtirish darajalari.....	44
O‘quv strategiyalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni sifatini nazorat qilish va natijalarni baholash	47
III qism. KURS TOPSHIRIQLARI	49
Xulosa	57
Atamalar ro‘yhati.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati	60

KIRISH

Jahon miqyosida ta'lim tizimini isloh qilishning eng muhim omillaridan hisoblangan pedagoglarning kasbiy hamda shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish, takomillashtirishga e'tibor qaratib kelinmoqda.

Xalqaro miqyosda ilg'or pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish, ommalashtirish, qayta ishlash, axborotlashtirish, intensivlashtirish yo'lida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida, jumladan, maktablarda fanlarni o'qitishning zamonaviy usullari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishning imkoniyatlari oshirilmoqda. O'qituvchilar bilim darajasi, ta'lim mazmunini boyitish, innovatsion strategik yondashuvlarining kiritilishi davom etmoqda. Bu esa o'z navbatida pedagoglarni o'z ustida ishlashga undaydi. Mazkur yangicha yondashuvlar respublikamizning tegishli qonun hujjatlariga asoslangan. O'qituvchilar uchun ilmiy-metodik ta'minotni yaxshilash, nafaqat professor-o'qituvchilarning, balki, maktab o'qituvchilarning faoliyatiga ham ilg'or va samarali ta'lim texnologiyalarini tadbiq etilishi, ularning tashabuskoriligini oshirish va namoyon etish imkoniyatlari kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-5712 sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni [1], 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 25-sonli qarori [2] va boshqa hujjatlar o'qituvchilarga faoliyatlarini innovatsion vositalar yordamida tashkil etishlarida dasturul-amal bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizda pedagoglarga yaratib berilayotgan zamonaviy shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda, zamonaviy o'quv strategiyalari yordamida samarali ta'lim jarayonini tashkil qilish juda yuqori pedagogik salohiyatni talab etmasdan, balki, mazkur yondashuvdan yaxshi xabardorlik hamda mavjud moddiy-texnik baza bilan birgalikda ilg'or pedagogik metodlarni o'zaro bog'liq, integrativ

holda foydalanish o'qituvchining yangi pedagogik imedjini yarata olishiga yordam beradi.

Uslubiy amaliyotning maqsadi – umumta'lim maktabi o'qituvchilariga o'quv strategiyalarining maktabda, akademik bo'lmagan sharoitlarda ta'lim mazmunini o'rganish yoki boshqa vazifalarni yanada samarali bajarishning qo'shimcha imkoniyatlarini tanishtirish, o'rgatish hamda muayyan ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini yoritib berish.

Uslubiy amaliyotning vazifasi – o'qituvchilarda o'quv strategiyalarini o'rganish va o'rgatish shakllari, turlari va resurslari integrasiyasi asosida ulardan maqbul foydalanish darajalari, ta'lim jarayonini individuallashtirish, ehtiyojlarga asoslanishi haqidagi bilimlarini kengaytirish;

-shaxsiy salohiyatini kuchaytirish va murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quv strategiyalarini maktabda, shuningdek, akademik bo'lmagan sharoitlarda tashkil qilishga doir ilg'or tajribalar bilan tanishtirish.

Kursning PMM o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

“Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining faoliyatida o'quv strategiyalarini (learning strategies) qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish” nomli qisqa muddatli mualliflik kursi mavzularini o'rganish maktab o'qituvchisining oliy ta'limda olgan bilim hamda egallagan ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga tayanadi, hamda malaka oshirish kurslari o'quv rejasining “Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o'zaro hamkorlik”, “Ta'lim nazariyalari va ularning amaliyotdagi tatbiqi”, “Zamonaviy ta'lim paradigmalari”, “O'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi” modullari bilan o'zaro bog'liqlikda o'tkazilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, qayta tayyorlov kurslarining “Umumta'lim fanlarini o'qitish metodikasi” fani o'quv rejasining variativ modullari mavzulari tarkibi ham yondosh mazmun sifatida belgilandi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari

invariant o‘quv dasturiga (2022 yil) asosan, egallashi zarur bo‘lgan umumiy kompetensiyalar bo‘yicha quyidagi blok va modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab olishi belgilangan:

I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

1.1. Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1.2. O‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi

1.3. Ta’lim nazariyalari va ularning amaliyotdagi tatbiqi

1.4. Ta’limda inklyuziya va ehtiyojlarga asoslangan differensial yondashuv

II. Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

2.1. Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o‘zaro hamkorlik

2.2. Zamonaviy ta’lim paradigmalari

2.3. O‘quv jarayonini samarali tashkil etish

2.4. Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

2.5. Formativ va summativ baholash tamoyillari

Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning “Zamonaviy ta’lim paradigmalari” moduli nazariy asos sifatida belgilab olindi. Aynan birinchi mavzu tadqiqot ishimizning mazmuni jihatidan nazariy-metodologik yondosh deb topildi.

1-rasm

2.2. “Zamonaviy ta’lim paradigmalari” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari	2		2
2.	Xalqaro baholash dasturlar (PISA, TIMSS va PIRLS) natijalari asosida ta’lim samaradorligini oshirish	2	2	
3.	O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish	2		2
	Jami	6	2	4

1-rasm. Zamonaviy ta’lim paradigmalari modulining o‘quv mavzu rejasi

2.2. “Zamonaviy ta’lim paradigmalari” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar va ta’lim modeli. O‘quvchi shaxsini rivojlantirish omillari: jismoniy, harakat, sezish, anglash, til va ijtimoiy-hissiy.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchilar mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Loyihaning tanlanishi, tadqiqot va tahlil, loyihani rejalashtirish, natijalarni taqdim etish orqali tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishning usul va vositalari.

2-rasm. Zamonaviy ta’lim paradigmalari modulining o‘quv dasturi

Kursning mazmunini o‘zlashtirilishiga qo‘yiladigan talablar.

Kurs tinglovchilari mazkur kurs mavzularini o‘zlashtirish natijasida: o‘quv strategiyalari turlari, shakllari, resurslari, ularni integratsiyalash, ta’limni individuallashtirish masalasida yangi yondashuvlar, tabaqalashtirish va pedagogik jarayonni loyihalashda strategik yondashishga doir asosiy tushunchalarni, huquqiy-me‘yoriy va tashkiliy-metodik ta’minot masalalari, o‘quv jarayonini o‘quv strategiyalariga asoslangan yondashuv asosida tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini, o‘quv strategiyalariga asoslangan yondashuv modelining tuzilishi, uning komponentlari va o‘zaro aloqadorligi, individual ta’lim traektoriyasini loyihalashda va amalga oshirishda o‘quv strategiyalarini kiritish masalasidagi xulosalarga ega bo‘lishi; kasbiy kompetentligini takomillashtirishda o‘quv strategiyalari shakllari, turlari, imkoniyatlarini o‘rganib, kasbiy ehtiyojlari asosida qo‘llashni belgilay olishi va amalga oshirish vositalarini tanlay olishni; kasbiy rivojlanish vektorini loyihalashda o‘quv strategiyalarni qo‘llay olishi va shaxsiy mas’uliyati asosida uni amalga oshirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi; o‘qitish jarayonida turli vositalardan maqbul darajada foydalanish, o‘quvchilar salohiyatini hisobga olgan holda loyihalash, uni amalga oshirishda o‘z-o‘zini rivojlantirish va refleksiyasiga tayana olish malakasiga ega bo‘lishi nazarda tutiladi. Tadqiqotimiz doirasida aniqlangan mavzu muammosiga doir bo‘shliqlar yuzasidan tuzilgan

kursni o'rganish orqali ushbu bo'shliqni to'ldirishga yordam berish maqsad qilindi.

Ushbu tadqiqot uchun ikkita guruh tanlanadi. Tajriba va nazorat guruhi sifatida. Ularning birinchisi baholanadi. Tajriba guruhlar kurs loyihasini o'z ichiga olgan tadqiqotni ko'rib chiqadilar, chunki ushbu maxsus qo'shimcha mashg'ulotlar bilan bog'liq. Daslabki so'rovnoma, tarqatma materiallar, media materiallar, testlar baholandi, ular har bir mashg'ulot o'tgach, alohida shaxsiy fikrini darslar loyihalarni muhokama qilish uchun uchrashuvlarga taklif qilinadi yoki dars so'ngida muhokama o'tkaziladi. Kursning 2-nazorat guruhida faqatgina dastlabki so'rovnomalar olinadi, viloyatlar pedagogic mahurat markazlari tinglovchilari mazkur bosqichga jalb qilinadi, ushbu amaliyotga hech qanday qo'shimcha kiritilmaydi, mavzu yuzasidan axborot berilmaydi. Belgilangan muddat yakunigacha davom etgan mashg'ulotlardan so'ng har ikkala guruhdan yakuniy so'rovnoma olinadi.

Qisqa muddatli kursning tashkil etilishning asosiy maqsad va vazifalari

- ta'lim tashkilotida ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borishning nazariy metodologik imkonini tahlil qilish hamda yaratish;
- qisqa muddatli kursning umumta'lim maktablari o'qituvchilarga itimoiy hamda davlat buyurtmasi mazmunini mutanosibligini ta'minlovchi amaliyotni tashkil etish; o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlarini aniqlab, xorijiy ilg'or tajribalar asosida interaktiv mashg'ulotlar tashkil etish;
- mashg'ulotlar davomida ilmiy metodik kuzatuv, innovatsion ilmiy tahlil usullari, kuzatuv, hamkorlik tamoyillariga asoslangan faoliyatni amalga oshirish;
- belgilangan tadqiqot yo'nalishi asosida tajriba, nazorat maydonlarida maqsadli faoliyatni tashkil etish;
- umumta'lim maktablari o'qituvchilarining o'quv strategiyalarini o'rgatish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy - tadqiqiy yechimlarini topish, rivojlantirish hamda natijalarni umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisining kasb standartlari darajasida ilmiy tayyorlash;

Qisqa muddatli kursni tashkil etishda quyidagi maqsadli faoliyat yo‘nalishlari belgilab olindi:

- ilmiy-metodik amaliyot: o‘qituvchilarning o‘quv startegiyalarini o‘rgatish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni innovatsion tizimli yondashuvni joriy qilish;

- ta‘lim tashkilotlari miqyosida qamrov va rezidentlar sifat darajasini mustahkamlovchi amaliyotni tashkil etish;

- umumta‘lim maktablari o‘qituvchilarning o‘quvchilarga o‘quv startegiyalarini o‘rgatish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlarning darajasi, ahamiyati, o‘rnini mustahkamlovchi amaliyot;

- umumta‘lim maktablari o‘qituvchilarning innovatsion ta‘lim startegiyalarini o‘rganish, o‘rgatish kompetentligini aniqlashga qaratilgan diagnostik tamoyillarni yaratish;

- umumta‘lim maktablari o‘qituvchilarining darslarni o‘quv startegiyalarini o‘rgatish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kompleks tashkil etish, integratsion hamda intuitiv imkoniyatlaridan foydalanishning natijadorligini aniqlashga qaratilgan tizimli tadqiqotni tashkil etish;

- qisqa muddatli kurs doirasida moslashuvchan o‘quv dasturi yaratish; asosiy va mustaqil ta‘lim olish, kasbiy rivojlanish kompetentligi doirasida o‘quvchilarga o‘quv startegiyalarini o‘rgatish ko‘nikmasini rivojlantirish choralari aniqlashtirish;

- kurs rezidentlarining fikrlari, takliflarini doimiy tahlil qilish, tashkil etilgan ilmiy-tajriba amaliyotining samaralarini tahlil etib borish, natijalarni ilmiy tahlil qilish.

ASOSIY QISM

Mazkur uslubiy qo'llanma umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan "O'qituvchilarda o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish ko'nikmasini rivojlantirish" dasturi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur mavzular doirasida innovatsion yondashuvlar, taklif hamda mulohazalar jamlanmasi sifatida to'plandi.

№	Mavzu	Jami	Ma'ruza	Amaliy
1	Zamonaviy ta'lim tendensiyalari va islohotlarning asosiy yo'nalishlari.	2	2	
2	Strategik yondashuv tushunchasi, mohiyati va tuzilmasi	2	2	
3	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning resurslari, turlari va shakllarini integrasiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.	2	1	1
4	O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish faoliyatini loyihalashda nazariy yondashuvlar va prinsiplar hamda tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar.	2	1	1
5	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.	2	1	1
6	Strategik yondashuvning o'quv mazmunini shakllantirishda ijtimoiy buyurtma darajalari.	2	1	1
7	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning imkoniyatlari va joriy qilish omillari.	2	1	1
8	O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonining individuallashtirish darajalari	2		2

9	O'quv jarayonini strategik yondashuv asosida loyihalash. O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini individuallashtirish darajalari	1		1
10	O'quv strategiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish va natijalarni baholash.	1		1
11	Jami	18	9	9

1-mavzu: Zamonaviy ta'lim tendensiyalari va islohotlarning asosiy yo'nalishlari

(2 soat ma'ruza).

Zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion yondashuvlar. Me'yoriy-huquqiy asoslar. Xorijiy mamlakatlarning tajribalari.

2-mavzu: Strategik yondashuv tushunchasi, mohiyati va tuzilmasi (2 soat ma'ruza).

Strategik yondashuv. O'quv strategiyalari. Mazmuni va mohiyati.

3-mavzu: Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning resurslari, turlari va shakllarini integrasiyalashning o'ziga xos xususiyatlari (1soat ma'ruza, 1 soat amaliy mashg'ulot)

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning resurslari, turlari va shakllarini subektlarning o'zaro ta'siri. Integratsiya va takomillashtirish usullari.

4-mavzu: O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish faoliyatini loyihalashda nazariy yondashuvlar va prinsiplar hamda tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar.

(1 soat ma'ruza, 1 soat amaliy mashg'ulot)

Strategik yondashuv aspektlarini o'rgatishda nazariy yondashuvlar va prinsiplar hamda tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar. Maktabda o'quv strategiyalarini o'rgatishning tuzilmasi, resurslari, turlari va shakllarini integrasiyalash parametrlari.

5-mavzu: Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini amalga oshirish bosqichlari. (1 soat ma'ruza, 1 soat amaliy mashg'ulot)

Maktablarda o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish faoliyati bosqichlari.

6-mavzu: Strategik yondashuvning o'quv mazmunini shakllantirishda ijtimoiy buyurtma darajalari (1 soat ma'ruza, 1 soat amaliy mashg'ulot)

Davlat va jamiyat buyurtmasi. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari. Mazmunni shakllantirishda o'quvchining roli.

7-mavzu: Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning imkoniyatlari va joriy qilish omillari. (1soat ma'ruza, 1 soat amaliy mashg'ulot)

Maktablarda o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari va joriy qilishning moddiy va nomoddiy omillari.

8-mavzu: O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonining individuallashtirish darajalari (2 soat amaliy mashg'ulot)

Individual ta'lim xususiyatlarining pedagogok ahamiyati. O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini individuallashtirish.

9-mavzu: O'quv jarayonini strategik yondashuv asosida loyihalash. O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini individuallashtirish darajalari

(1 soat amaliy mashg'ulot)

Loyihalash texnologiyasi imkoniyatlari. O'quv jarayonini strategik yondashuv asosida loyihalashning xususiyatlari

10-mavzu: O'quv strategiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish va natijalarni baholash. (1 soat amaliy mashg'ulot)

O'quv strategiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni sifatini diagnostik ahamiyati.

Mustaqil ta'limni tashkil etish shakli va mazmuni

Tinglovchilarga auditoriyada mashg'ulotlarni mustahkamlashda, o'z-o'zini rivojlantirishda foydalanish tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim shakllari: mavzuga oid o'quv-metodik adabiyotlarni o'qish; o'quv vaziyatlarini loyihalashga doir topshiriqlarni bajarish; mavzu yuzasidan jadvallar tuzish, esselar yozish, glossariy, va boshqa shu turdagi mashqlar bajarish; mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.

Pedagogika fanlari doktori, professor A.A. Ibragimovning xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishning ko'p vektorli yondashuviga ko'ra:

Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirishdan maqsad:

- Kasbiy ehtiyojlar
- Davlat va jamiyat buyurtmasini bajarish

Malaka oshirish shakllari:

- An'anaviy kurslar
- Metodik xizmat
- Mahorat maktabi
- Masofadan malaka oshirish
- Qisqa muddatli kurslar
- Pedagog kadrlar attestatsiyasi

Malaka oshirishni takomillashtirish yo'nalishlari:

- Pedagoglar kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish

- O'quv mazmunini shakllantirishning modulli texnologiyalarini takomillashtirish

- Ta'lim jarayonini individuallashtirish va uzluksizligini ta'minlash. [2]

Mazkur yondashuvga binoan, umumta'lim maktablari o'qituvchilarida o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish ko'nikmasini rivojlantirish amaliyotini o'tkazishda pedagogik mahorat markazlari o'quv dasturiga binoan, pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrası tasarrufidagi modullar asosida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining faoliyatida o'quv strategiyalaridan


foydalanish ko'nikmlarini rivojlantirish amaliyotida ustuvorlikni prognoz qildik, qisqa muddatli kursning faoliyat mazmuni, modeli hamda o'quv dasturi, rejasi ishlab chiqildi. Mazmunni o'zlashtirishda yordam beradigan metodik va texnologik usullar tanlandi.

Pedagoglar malakasini uzluksiz oshirish tuzilmasida [2] pedagoglarning malaka oshirish turlari uchga bo'lib izohlangan, ular: formal, noformal, informal sifatida klasifikatsiyalangan. O'qituvchilarni formal o'qitish davomida amaliy faoliyat yordamida tegishli ko'nikmalarni mustahkamlash ish jarayoniga tadbiq etilayotgan innovatsion unsurlarning yutuq va kamchilikni tajribada sinovdan o'tkazib, mulohazalar asosida foydalanish oson joriy etishni taminlaydi. O'qituvchining yangiliklarga intilishi, ishtiyoqi ta'lim jarayonini yanada interfaol va samarali tashkil etilishida muhim jihat sifatida e'tirof etiladi.

O'qituvchilarda o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirish faoliyati mazmuni doirasida uslubiy qo'llanma tayyorlanib, materiallari tinglovchilarga yetkaziladi.


3-

rasm



3-rasm. O'qituvchilarda o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirish faoliyati mazmuni

O‘qituvchilarda o‘quvchilarni o‘quv strategiyalariga o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan “Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining faoliyatida o‘quv strategiyalarini (learning strategies) qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish” kursi mobaynida o‘qituvchilar bilan treyninglar, suhbatlar va boshqa turdagi amaliyotlar o‘tkaziladi. 4-rasm



4-rasm. Kursning faoliyat traektoriyasi

I BOB. O‘QITUVCHILARDA O‘QUVCHILARNI O‘QUV STRATEGIYALARIGA O‘RGATISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

1.1 Zamonaviy ta’lim tendensiyalari va islohotlarning asosiy yo‘nalishlari. Strategik yondashuv tushunchasi, mohiyati va tuzilmasi

O‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvni amalga oshirish bo‘yicha mahsus bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘qituvchi natijasi kafolatli dars jarayonini tashkil eta oladi. O‘z mutahassisliklari doirasida fan asoslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va zamonaviy yondashuvni mutanosib tanlash kompetitililigini shakllantirish uchun “pedagogik texnologiya” tamoyillari N.Sayidahmedov fikricha, o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni. Amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasi”. [3]

O‘qituvchi yangi pedagogik texnologiya tanlaganda o‘quv materialini o‘zlashtirishning imkoniyatlarini inobatga ola bilishi lozim. Jumladan ta’lim oluvchining o‘quv materialini o‘zlashtirib olish darajalari:

- boshlang‘ich,
- algoritm,
- ijodiy,
- everestik turlarga bo‘linadi.

O‘zlashtirishning **boshlang‘ich** darajasida ta’lim oluvchi eshitganlari, ularga berilgan na’munalar, taqdim etilgan algoritm va ko‘rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi. O‘zlashtirishning **algoritm** darajasida bilim va ko‘nikmalar mazmunini tadbiq qila olish mahorati, muammolarni yecha olish, kerakli deb hisoblagan ma’lumotlarni mustaqil yozib olish, eslab qolish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi. **Ijodiy** darajadagi o‘zlashtirishda ta’lim oluvchi taqdim etilgan o‘quv masalalarini yechish yo‘llarini izlash hamda bu muammolarni yechish uchun mustaqil tarzda yangi axborotlarni izlab topish

ko'nikmasiga ega bo'ladi. **Everestik** turdagi o'zlashtirish darajasiga ega o'quvchilar taqdim qilingan o'quv materillarini tahlil qilish usullarini oldindan o'zlashtirgan bo'ladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga muvofiq metod va yangiliklarni kiritishi lozim. Bilamizki, bir sinf kesimidagi o'quvchilarning har xil o'zlashtirish darajasida bo'ladi va ta'lim beruvchi ularning bariga bir xilda yondoshuvi kam samarali bo'lib, kutilgan samaraning kamayishiga yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi.

V.P.Bespalko o'qituvchi va ta'lim oluvchi munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

- berk- (o'quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);
- davriy - (nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat);
- tarqoq - (frontal) yoki yo'nalganlik (individuallik);
- goho (og'zaki) yoki avtomatlar (o'quv vositalari) orqali munosabatlar.

O'qituvchilar va o'quvchilar global ta'limda ishtirok etishlari, ular duch keladigan sun'iy to'siqlarni yengish uchun ta'lim sifatini oshirish va takomillashtirish masalalari dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan tajriba ilg'or tajriba almashinuvni talab qiladi. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining jadal rivojlanishi sharoitda jamiyat ilm-fan, texnika va madaniyat, har bir davlatning yuksalishida katta o'rin egallaydi. Ta'lim tizimida o'qitish usullarining tarkib va sifat talablari, shakllari juda ahamiyatli hisoblanadi.

Bugungi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat vaqtni qisqartirish va masofalarni qisqartirishga imkon berdi, balki, ta'limni tashkil etishda jahon tajribasini xalqaro sohada aloqa, chuqur tushunishga hissa qo'shdi. Ta'limni rivojlantirish masalalari ko'p jihatdan jahon tajribasini o'rganishga bog'liq. Ta'lim tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega ta'limning dolzarb maqsadlari va vazifalari, usullari va shakllari, resurslar xususiyatlari, tizimdagi xodimlarni tanlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi individualligini xarakterlaydi.

Kasbiy tayyorgarlikning jahon tajribasini o'rganish.

Ta'limni modernizatsiya qilish hamma uchun xalqaro tajribani tahlil qilish, o'rganishga asoslangan bo'lib, globallashuv va xalqaro integratsiya jarayoni rivojlanayotgan mamlakatlar milliy manfaatlarini himoya qilishni ham nazarda tutishi manfaatli hisoblanadi.

Ta'limni strategik rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifasi asosiy hisoblanadi. Ta'lim tizimi, dasturlari va mamlakatda o'qitish usullari quyidagi sabablar bilan o'zgartiriladi:

- maktablarda har qanday bo'linishni yo'q qilish
- zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash
- jamiyatning yangi talablariga muvofiqlikni ta'minlash [11].

Dunyoda sifatli va oson o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hamkorlik asosida shakllangan rivojlanish strategiyalari, ta'lim strategiyalari, kontseptual xususiyatlar va asosiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishlari, ta'lim sohasidagi zamonaviy va global tendentsiyalar va islohotlar tizimlari, qiyosiy tahlil va tizim dinamikasi zarurati tashkiliy va pedagogik jarayondagi kamchiliklarni ilg'or tajriba bilan almashish orqali ta'limda yangi texnologiyalar va tamoyillar, yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish, takomillashtirish sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish, takomillashtirish o'zaro manfaatli hamkorlik samaradorligi ijtimoiy-siyosiy va vazifalarni amalga oshirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kabi vazifani qo'ymoqda [1]. O'zbekiston o'zining ta'limini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sirasiga rivojlangan mamlakatlarning yetakchi tamoyillari va tajribalarni hisobga olgan holda, quyidagilar kiritadi [7]:

- ta'limni rivojlantirish muayyan tendentsiyalarni aniqlash;
- ta'limning yangi turlarini yaratish: zamonaviy texnologiyalarga moslashtirilgan muassasalar, yangi elektron o'quv rejalari, elektron jurnallar va darsliklar yaratish;
- yoshlarning erkin ijodkorligi uchun moddiy va ma'naviy sharoitlarni yaratish;
- ehtiyojlarning o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish;

- O'zbekistonning jahon ta'limiga integratsiyalashuvi standartlari [7].

Davlat quyidagilarga alohida e'tibor beradi:

- uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish,
- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish,
- zamonga muvofiq yuqori malakali kadrlar masalasi
- mehnat bozori talablariga tayyorgarlik [7].

Ta'limning xalqaro standart tasnifi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida mamlakatda mustahkam huquqiy, tashkiliy va moddiy-texnik baza yaratildi. Malakali mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabiga muvofiqlik. Ushbu mutaxassislarni tayyorlashni amalga oshirilishi ustuvorliklarni hisobga olgan holda iqtisodiyot, zamonaviy texnik va texnologik tendentsiyalar va kamida ikkita chet tilini yaxshi bilishini ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, bitiruvchilarining kasbiy mahoratining sifatini tubdan oshirish maqsadida real ehtiyojlarni hisobga olgan holda tarmoqlar hamda ish beruvchining talab va takliflarini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Pedagogik jarayonni shakllantirish asosida axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda boy ilmiy, xalqning madaniy va ma'naviy merosi, milliy fazilatlar ruhida rivojlantirish vatanparvarlik va sadoqatni tarbiyalash yetakchi vazifalar sifatida belgilangan. Yosh avlodni shakllantirish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va yondashuvlarning rivojlanishini nazarda tutadi. Yetakchi mahalliy va xorijiy o'quv yurtlari, professional sohada yuqori malakali xorijiy mutaxassislarning xalqaro malakalarini uyg'unlashtirish talablari bosqichma-bosqich, moslashish va milliy malakalarni tan olish analoglar bilan bog'liq. Shuningdek, norasmiy ta'limning samarali integratsiyasi davlat ta'lim tizimiga tashkilotda to'plangan tajriba, o'quv jarayoni, shuningdek kasbiy tayyorgarlik va tarkibiy umumiy ta'limni tahlil asosida xulosa qilish imkonini beradi.

Ta'limni rivojlanishining turli bosqichlarida professional tizim uning rivojlanishining barcha ko'rsatkichlari bilan ta'lim jamiyatda sodir

bo'layotgan dinamik o'zgarishlarning tahliliga asoslanadi. Ayni paytda O'zbekistonda yangi yondashuvlarga asoslangan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ta'lim tizimining har bir xodimiga yuklatilgan sifat ko'rsatgichini doimiy ravishda oshirish uchun yuqori mas'liyat, zamonaviy suratlarga muvofiqlik, ta'lim fan, texnika va ishlab chiqarish rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Hozirda xalqaro tajriba ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish va shuningdek, o'zaro munosabatlar tajribasi, yanada mukammallashtirishda zarur. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda xodimlar uchun quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

1. Ta'lim, fan va sanoatning o'zaro manfaatli munosabatlari.
 2. Turli xil ta'lim muassasalari va kasb-hunar ta'limi dasturlari, fan va texnika sohasidagi yutuqlar, ulardan foydalanish iqtisodiyotning yuqori standartlari va namoyon bo'lishi va texnologiyalari bilan bog'liqligi.
 4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv va uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash, ularning moddiy-texnik bazasini yaratish va mustahkamlanish, ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini shakllantirish.
 5. Ta'lim tizimiga yuqori malakali mutaxassislar, o'qituvchilarni jalb qilish.
 6. O'quv jarayoni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.
 7. Sifat menejmenti tizimini joriy etish va ob'ektiv monitoring tizimlarini yaratish.
 8. Shaxsni psixologik va pedagogik rivojlantirish, o'lchash bo'yicha tadqiqotlar, xulq-atvor sifati, ko'nikmalar, qobiliyat va professionallikni baholash ishlarini o'tkazish.
 9. O'qituvchilarni moddiy mustahkamlikka olib chiqishga undash, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya davlat ta'lim tizimiga ega tizimlar,
- O'zbekiston ta'lim tizimi jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi. Mamlakat rivojlanishining turli bosqichlarida tizimda dolzarb masalalar, muammolar hal qilindi. Boshqa tizimlar kabi ta'limi tizimi ham

rivojlanishning barcha ko'rsatkichlari bilan jamiyatda sodir bo'layotgan dinamik o'zgarishlarda aks eta oldi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini yanada mazmunli tashkil etish maqsadida o'quvchilar dunyoqarashini, intellektual salohiyatini, xulq atvorini, madaniyatini, kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladigan inovatsion tamoyillarga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, soha vakillari tomonidan ta'lim berishning kreativ, modern (zamonaviy) yondashuvlaridan foydalanish masalasi yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borishni taqazo qilmoqda.

Zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, sifatli bilim olish zaruratini ehtiyoj va istiqbolli kelajak kaliti ekanligini o'quvchilari ongiga singdira olish ko'nikmasi har bir pedagogning professiogrammasi tarkibiga kirishi lozim, binobarin, pedagoglarda mazkur ko'nikmani rivojlantirish yosh avlodning muvaffaqiyatli ta'lim natijalari asosi bo'la oladi deyish mumkin.

Strategik yondashuvning dolzarbligi shaxslar hayotining zamonaviy sharoitlari bilan belgilanadi. Xususan, ta'lim tendentsiyalari, umrbod ta'lim olish, ta'lim harakatchanligi, ta'lim dasturlari hamda jamiyat va davlat talabining har yili o'sib borayotgan o'zgaruvchanligi, maqsadlarni belgilash, uzoq muddatli rejalar individual yondoshuvli strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini taqazo qilmoqda.

So'nggi yillarda "strategiya" atamasi ilmiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib bordi, shuning uchun bugungi kunda ushbu tushunchaning ko'plab ta'rif va izohlari mavjud.

"Strategiya" tushunchasi qadimgi Yunonistonning harbiy nazariyasida paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, "strategos" so'zidan kelib chiqqan, "qo'mondonlik san'ati" ma'nosini bildirgan. Keng ma'noda "strategiya" - mavjud resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli maqsadga erishish uchun yetishmayotgan resurslarni topish uchun mo'jallangan amallar bilan belgilangan. Harbiy ishlarda ikki darajadagi strategiyalar mavjud bo'lgan: birinchisi "qo'mondonlik san'ati" - bu harbiy harakatlarning umumiy rejasini ishlab chiqish, kuchlarni jabhalar bo'ylab taqsimlash, janglarning barcha natijalarini ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan strategiyalar, ikkinchisi "leytenantlik san'ati" - olingan

buyruqlarni bajarishning eng samarali usullarini izlashga yo'naltirilgan strategiyalar bo'lgan. Strategiya so'zi turli sohalarda qo'llanilishi mumkin, lekin umumiy ma'noda, bu biror maqsadga erishish uchun belgilangan, oldindan rejalashtirilgan yo'l yoki usulni anglatadi. Strategiya — bu qisqa yoki uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun aniq va tizimli yondashuvdir. U har qanday jarayonni, masalan, biznes, ta'lim, sport, siyosat va boshqa sohalarda qo'llanilishi mumkin. Strategiyaning asosiy maqsadi — resurslarni samarali ishlatish va maqsadlarga yo'naltirilgan aniq qadamlarni belgilash.

Misollar:

1. **Biznes strategiyasi:** Kompaniya maqsadlariga erishish uchun tuzilgan rejalar va usullar. Masalan, bozorda raqobatni yengish yoki yangi mahsulotni taqdim etish strategiyasi.

2. **Ta'lim strategiyasi:** O'quvchilarga samarali ta'lim berish uchun ishlab chiqilgan usullar va yondashuvlar. Masalan, o'quvchilarga ma'lum bir bilimni o'rgatish uchun qo'llanadigan o'quv strategiyalari.

3. **Siyosiy strategiya:** Hukumat yoki siyosiy partiyalar tomonidan qo'llanadigan siyosiy yondashuvlar va taktikalar. Masalan, saylovlarda g'alaba qozonish uchun tuzilgan strategiyalar.

Ta'lim strategiyalar — bu o'qituvchi yoki ta'lim tizimi tomonidan o'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun ishlab chiqilgan reja va yondashuvdir. Masalan, o'qituvchilarning o'quvchilarga ma'lum bir mavzu yoki ko'nikmani o'rgatishdagi yondashuvi, o'quvchilarning o'rganish jarayonini osonlashtiradigan usullarni qo'llash. Strategiya — bu harakatlar ketma-ketligini va ulardan qanday foydalanishni belgilab beruvchi “yo'l xaritasi”dir.

Mazkur uslubiy qo'llanma belgilangan qisqa muddatli kurs tinglovchilari sifatida belgilangan o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, kursining quyidagi tamoyillarini yoritish uchun tuzildi:

- Strategik yondashuv tushunchasi, mohiyati va tuzilmasi
- Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning resurslari, turlari va shakllarini integrasiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.

- O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish faoliyatini loyihalashda nazariy yondashuvlar va prinsiplar hamda tashkiliy pedagogik shart-sharoitlar.

- Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

- Strategik yondashuvning o'quv mazmunini shakllantirishda ijtimoiy buyurtma darajalari.

- Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning imkoniyatlari va joriy qilish omillari.

- O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonining individuallashtirish darajalari

- O'quv jarayonini strategik yondashuv asosida loyihalash. O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini individuallashtirish darajalari

- O'quv strategiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish va natijalarni baholash.

1.2 Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishning resurslari, turlari va shakllarini integrasiyalashning o'ziga xos xususiyatlari


O'quv strategiyalari ta'lim oluvchining umumiy o'rganish qobiliyatlarini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan usullardir. O'quv strategiyalari g'oyalar, xotiralar, mantiqiy fikrlash, his-tuyg'ular kabi resurslardan foydalangan holda o'rganish mazmunini o'zlashtirish va eslab qolishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Samarali o'quv strategiyalari turli harakter xususiyatlarga ega o'quvchilarga xotira va diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilash, o'qish va yozish ko'nikmalarini sifatini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. O'quv strategiyalarining yangi ko'rinishlari o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni rag'batlantirish, oson o'quv uslublarini o'rganish, kam vaqt mobaynida hajm va sifat jihatdan ko'lami katta ma'lumotlarni osonlik bilan o'zlashtirish usullarini o'zida

kashf etish kabi komponentlarni o'zida jamlagan ko'rinishi o'quv strategiyalarining modern usuli sifatida baholanadi.

O'quv strategiyasi bo'yicha ko'rsatmalar o'quvchilarga qanday o'rganish lozimligi, muammolarni qanday hal etish usullari va muvafaqqiyatga erishish uchun o'rgangan ma'lumotlardan qanday foydalanishni o'rgatish orqali o'qish jarayonini osonlashtiradigan tamoyillar hisoblanadi. O'quv strategiyalari imtihondan o'tish uchun tayyorlanish (o'qish) rejasini ishlab chiqishni o'rganish, o'quv materiallarini aniqlashtirish, ma'lumotlar mazmunini tushunishni nazorat qilib borish va natijalarni baholashni o'z ichiga oladi.

O'quv strategiyalari quyidagicha bosqichlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

- maqsadlarni belgilash;
- o'z-o'ziga o'rgatish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;



4-rasm

4-rasm. O'quv strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari.

Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida ma'lum bir innovatsion yondashuvni shakllantirish, rivojlantirish aniq bosqichli tamoyillarga asoslanadi. O'qitishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan kurslar tashkil qilish, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish va ommalashtirish, o'qituvchilarning o'z faoliyatlarini tashxislashlarini ta'minlash, pedagoglarning kreativ salohiyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurati individual rivojlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan o'qituvchilarda o'quv strategiyasidan foydalanishning shakllanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarga ta'lim jarayonida foydalaniladigan samarali o'qitish usullarini o'rgatish hududlardagi pedagoglarga yangi metodlarni o'rgatish milliy markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur tashkilotning professor-o'qituvchilari ilg'or xorijiy tajribalar asosida muvofiqlashtirilgan tartibda zamonaviy metodlarni ishlab chiqishadi. Bunday metodlar maqsadga erishilgan ta'lim jarayoniga erishishni maqsad qiladi. Muvaffaqiyatli o'qitishning bir qancha strategiyalari aniqlangan: darslarga tayyorlanish, doimiy harakatlar, o'z-o'zini rag'batlantirish, chalg'itadigan narsalardan xoli muhit, maqsadni belgilash, kasbiy bilimlarni egallash, vaqtni boshqarish, yetarli o'qish, o'zini o'zi boshqarish, do'stlar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlar, tarmoq, bir xil maqsadga ega bo'lgan jamoa bilan b o'lmoqlik, ijobiy o'rganuvchi bo'lmoqlik.

Mazkur startegiyalari asosidagi o'uchilarni hamda tinglovchi subekt o'rnidagi o'qituvchilarda umumta'lim maktablari o'quv strategiyalari bilan ishlash darajasini oshirish uchun quyidagi maqsadli amaliyotlarni bajarish samarali deb topdik:

1. Darslarga tayyorgarlik.



O'qituvchilar mavzuni o'rgatishda ikkita faoliyat turidan foydalanadi. Birinchisi, mazmun mag'zini ko'rib chiqish. Ushbu mashg'ulot odatda darsdan oldin yoki bir kun oldin kitoblar, materiallar yoki eslatmalarni o'qish bilan amalga oshadi. Bu uchun vaqt ajratishni talab etiladi. Ikkinchisi darslarga tayyorgarlik. Darsga kirishdan oldin ular materiallar, kitoblardan tayyorlanishlari yoki uy vazifalarini belgilangan qismlarini takrorlash kiradi.

2. Doimiy harakatlar.



Ushbu strategiya o'qituvchi o'quvchiga doimiy maqsadga ega bo'lishi kerakligini tushuntirishni nazarda tutiladi. Bu omil ularga juda kerak, chunki maqsad har kuni o'qishlari uchun undaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'qish paytida juda ko'p topshiriqlarga ega bo'lishadi, shuning uchun ular o'z vazifalarini izchil, doimiy bajarish uchun harakat qilishlarini tushuntirish kerak bo'ladi.

3. O'z-o'zini rag'batlantirish.



Har bir o'quvchi har xil o'z-o'zini rag'batlantirishning nazariy bo'lmagan usullariga ega. Ulardan ba'zilari hatto juda yuqori rivojlantirilgan rag'batlantirish usullariga ham ega bo'lishi mumkin, boshqalari esa past darajada. Bunga atrof-muhit yoki oila kabi bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini rag'batlantirishni o'rgatish o'quvchilar uchun juda muhimligi shundaki, ular maktab vazifalari bosimiga dosh bera olishlari uchun o'zini rag'batlantirishi kerak. Agar o'zini rag'batlantirmasa o'quvchi qiyinchiliklarni yengish uchun o'zida yetarli ishtiyoqni topishga qiynaladi, harakat qilmaydi. Masalan, o'quvchi belgilangan vazifani muvafaqqiyatli bajarib bo'lgach o'zini ma'lum

moddiy yoki nomoddiy resurslar bilan mamnum qilishi va h.k. Moddiy rag‘batlanish shakli ko‘proq natijadorlik kasb etishi sinovlarda namoyon bo‘ladi.

4. Chalg‘itadigan narsalardan xoli mos muhit.



O‘quv muhiti o‘rganishda eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O‘quvchi mahsus joylarda yoki har qanday chalg‘ituvchi va shovqindan uzoqda bo‘lgan tinch muhitda (uyda, kutubxonada, bog‘da va b.) o‘qisa, bu o‘qish o‘zlashtirishni osonlashtirishni tushuntirish muhim.

5. Maqsad qo‘yish.



Maqsad qo‘ygandan so‘nggina, o‘quvchi o‘qishga e‘tibor qaratadi, vaqtini boshqaradi va nimani o‘rganish va qayerdan o‘rganishni bilishga intiladi. O‘quvchi o‘z vaqtini behuda sarflamaydi, chunki u qo‘ygan maqsadiga erishishni maqsad qilgan. Masalan, imtihonda yaxshi ball olishni maqsad qilish kabi.

6. Kasbiy bilimlarni egallash.




O'quvchilarga ma'lum kasbiy mutaxassislik fanlarini professiogramma bilan uyg'un tarzda o'rgatish. Natijada o'quvchi o'z sinfida professional bilimlarga ega bo'ladi, bu kelajakda ishga joylashishda yordam beradi.

7. Vaqtni boshqarish.



O'quvchining o'z vaqtini boshqaradigan strategiyalarni o'rgatish. Mustaqil o'qish, yarim kundagi maktab mashg'ulotlari, boshqa ko'plab tadbirlar o'quvchidan ularni yaxshi tashkil qilishni talab qiladi.

8. Yetarli miqdordagi tadqiqot.



O'qish uchun yetarli vaqtga ega bo'lish o'quvchi uchun juda zarurdir. Ular nafaqat uyda, balki maktabda, kutubxonada ham o'qishni qoidaga aylatirishi lozim. Masalan, ertalab rejalashtirilgan vaqtda o'qish, o'zlari tushunmagan yoki o'tkazib yuborgan ma'lumotlarni ko'rib chiqish va o'zlashtirish uchun har kuni kechqurun ma'lum vaqt yoki haftada to'rt-besh kun o'qish kabilarni tushuntirish o'qituvchidan individual yondashuvni talab qiladi.

9. O'zini boshqarish.



Kundalik o'quv faoliyatidagi odatlarni boshqarish oson emas. Maktabda maqsadlari aniq bo'lgan o'quvchilar o'zini o'zi boshqarish uchun rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalarini o'rnatishni o'rgatish muhim. Masalan, maktabda o'quv yili boshlanishida yoki har kunlik mashg'ulotlar ro'yxatini tuzish singari, kundan unumli foydalanish uchun iloji boricha rejani muammosiz bajarishlari kerak bo'ladi.



10. Do'stlar va o'qituvchilar bilan muloqot.

Muloqot, yordam so'rash o'quvchiga katta yordam beradigan omillardan hisoblanadi. Do'stlar va o'qituvchilar bilan o'zaro aloqada bo'lishga harakat qilishni shakllantirish akademik muammolarni hal qilish uchun ham, ko'proq tavsiyalar olishda ham muhim hisoblanadi. Do'stlari shuningdek, o'qituvchilari orasida muammoli vazifa yoki ma'lum fandan samarali tushuncha bera oladiganlari bo'lishi mumkinligini tushuntirish muhim.

11.Tarmoq.



O'quvchi uchun internet tarmog'iga ega bo'lish muhimdir. O'qituvchi undan foydalanish madaniyatini shakllanishida to'g'ri yo'nalish berishi kutiladi. Tarmoq o'quvchiga yaxshi kelajakka erishishga

yordam beradi, masalan, o'qishdan keyingi qo'shimcha mashg'ulotlar haqida ma'lumot olish, stipendiyalar, grantlar, tanlovlar yoki akademik hayotda va undan tashqarida bo'lgan qiziqishlariga asoslangan ko'nikmalarini rivojlantirishda asqotadi.

12. Bir xil maqsadli do'stlarga ega bo'lish.



O'quvchi tomonidan qo'yilgan maqsad, boshqa do'stlarining maqsadi bilan bir xil bo'lganda o'qish juda qiziqarli va jo'shqin jarayonga aylanadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun birgalikda o'rganish ularga o'qish muammosini hal qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, har doim bir-birini qo'llab-quvvatlash, samarali o'qishga ko'proq turtki bo'lishi pedagogning to'g'ri ko'rsatmalari asosida shakllanadi.

13. Ijobiy o'rganuvchi bo'lish.



O'rganishda muvaffaqiyatga erishishning kaliti o'quvchilarning o'zlariga va o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qilishidir. Pessimizm o'quvchining salbiy o'quvchiga aylanishiga olib kelishi mumkin, ya'ni ular o'zlariga yetarlicha ishonmaslik yoki motivatsiyaga ega bo'lmaslik har qanday intiluvchan o'quvchini ham najtijasizlikka olib kelishi mumkin. Aksincha, ijobiy fikrlaydigan, ruhiyatida ko'tarinkilik mavjud o'quvchi muvaffaqiyatga erishish uchun ko'proq qarorlar qabul qiladi,

chunki, u o'quv maqsadlarini allaqachon qo'ygan . Salbiy kayfiyat va hissiyotlarni bartaraf etishda o'qituvchi psixologik yondashuvni amalga oshirishi lozim. Maktab psixologi, ota-ona bilan birgalikda amalga oshirilgan amaliyotlar o'zining ishonchli natijalarini tasdiqlagan.

Zamon talablari asosida o'qitish jarayoni o'qituvchi o'z malaka sifatlariga ahamiyat berishni kuchaytirishni taqazo qiladi. Bu esa, intensiv yondashuvdagi o'quv amaliyotlariga qatnashish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtayi nazardan innovatsion materiallarni o'zlashtirishda, undan foydalanish ko'nikmalarni takomillashtirishda faol o'zlashtirish uslublarini tanlash, yaratish, o'rganish maktab o'qituvchisining faoliyatiga yanada ko'proq modern, muvaffaqiyatli o'qitish omillarini kiritish imkonini beradi.

1.3 O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish faoliyatini loyihalashda nazariy yondashuvlar va prinsiplar hamda tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari, amalga oshirish bosqichlari.

Maktab o'quvchilariga o'quv strategiyalarini o'rgatish. Maktab o'quvchilariga zamonaviy ta'lim muhitida o'quv strategiyalarini o'rgatishning kompleks yondashuvi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- ta'limning maqsadi;
- ta'lim mazmuni;
- o'qitish usullari;
- o'qitish texnikasi;
- o'qitish vositalari;
- tashkiliy shakllar.


Maktab o'quvchilarini o'qitish uchun ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalarning maqsadi har bir darsni o'quvchilar uchun mustaqil o'quv jarayonini qanday tashkil etish kerakligiga misol bo'ladigan tarzda o'tkazishni o'z ichiga olishi muhim hisoblanadi. Maktab o'quvchilarini o'quv strategiyalariga o'rgatish jarayonining muhim xususiyati darsda o'qituvchining pozitsiyasini o'zgartirishidir. Darsda asosiy rol o'qituvchining notiqlik mahoratiga emas, balki yordam bera olish intuitsiyasiga bog'liq bo'ladi.

O‘z-o‘zini tartibga solishning shaxsiy rivojlanish bilan aloqasi.

Shaxs o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini tahlil qilish orqali kognitiv jarayonlarini tartibga solishga harakat qiladi. Olimlar XX asr o‘rtalarida o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarini, shu jumladan vaqtni boshqarish, maqsadlarni belgilash, o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘z-o‘zini aks ettirishni o‘rganish masalalarida ilmiy tadqiqotlar olib borib, ularni bir joyga to‘plashga harakat qilishdi. B. Zimmerman o‘rganish jarayonida o‘zini - o‘zi tartibga solishda o‘zini boshqarishning bir necha muhim jihatlarini ta’kidlaydi. Bilim ta’limda eng muhim pozitsiyani egallaydi. **Ta’lim olish uchta komponentning** o‘zaro bog‘liqligini nazarda tutadi:

- axborotni qayta ishlash jarayonida tug‘ilgan bilim;
- potensial bilim sifatida tabiatda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar (agar u murakkab tarmoqqa ulanishi va bilimga aylantirilishi mumkin bo‘lsa);
- sezgilardan ma’lumot yaratishga imkon beradigan tajriba (ilgari olingan ma’lumotlar bilan bir qatorda mavjud bo‘lgan bilimlar).

Teskari sinflar (FCS) - "teskari auditoriya" strategiyalari.



Birinchi marta yangi mazmun materiallarga kirishda boshlanadi va bu ularning darslarda faolligi va baholanish vaqti bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun teskari auditoriyalarning tuzilishi o‘quvchilarning kechikish darajasini pasaytirishi hamda samaradorlikni oshirishi mumkin.

“Issiq mavzu” strategiyasi ham keng tarqalgan bo‘lib, an’anaviy ravishda sinfda o‘qitiladigan materiallar oldindan o‘qitiladi, ular yuzma-yuz muloqot qilishga tayyorlanadi. Bu sinfda ko‘proq vaqtni bo‘shatishga imkon beradi ya’ni amaliyotga urg‘u beriladi, amaliy mashg‘ulotlar

sinfda o'rganishni yanada faol va qiziqarli qiladi degan mazmundagi g'oyaga asoslanadi.



“Interfaol sinflarni yaratish” asosan resurslarni yaratadigan ta’lim texnologiyalariga bog’liq va bundan ko‘proq foydalanish mumkin. Bu o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, o‘z bilimlarini faol ravishda shakllantirishga bog’liq. Tadqiqotlarda an’anaviy sinflar va mazkur shakldagi sinflar bilan ishlashni taqqoslaganda qanday qilib, nima uchun ekanligini o‘rganish kerakligi, qachon va kim uchun foydali bo‘lishi asosli ochiqqlangan.



Konvertatsiya qilingan sinflar ya’ni qo‘shimcha darslarga mo‘ljallangan sinflar bo‘lib, ta’lim sifatini yaxshilaydi. Bunday sinflar o‘rganish uchun yanada moslashuvchan imkoniyatlarni taqdim etadi. Faol o‘rganish orqali o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning teskari sinflarda ishlashi an’anaviy sinflarga qaraganda yuqori natijalar beradi.



Motivatsiya. O‘quvchilar orasida motivatsiyaning pastligi, shuningdek, chekka asosan chekka hududlarda o‘quvchilarning tomoshabin o‘rniga o‘tib qolishi haqidagi tahlillar mavjud. Ularga yanada ijobiy o‘rganish tajribasini taqdim etish ko‘proq ma’lumot olish imkonini beradi.

Texnologiya. Texnologik taraqqiyot o‘quv strategiyalarini amalga oshirishni osonlashtiradi. Bunda elektron ta’lim vositalari muhim ahamiyatga ega. Sinfdagi an’anaviy cheklovlarni yengib o‘tishni xususan, darslarga texnologik tayyorgarlikni ham qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Bunda elektron kitoblar, audio slaydlar va video muhim o‘rin tutadi. O‘qish materiallari bilan taqqoslaganda, videolar, media vositalari ayrim turdagi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini yaxshilashi aniqlangan. Lekin, maktab o‘quvchilariga shunchaki passiv ko‘rishli video emas balki, o‘quvchilarning o‘zaro ta’sirini rag‘batlantiradigan videolarni namoyish qilish kerak bo‘ladi.

Test. O‘quvchilarning interaktivligini testlar orqali ham oshirish mumkin, ayniqsa, onlayn ko‘rinishdagi test materiallari foydali deb topilgan mulohazalar juda ko‘plab uchraydi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga o‘quv strategiyalarini o‘rgatishning imkoniyatlari va joriy qilish omillari.

Strategik yondashuvning o‘quv mazmunini shakllantirishda ijtimoiy buyurtma darajalariga muvofiq bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. O‘quv strategiyasining umumiy sohasi barcha yoshdagi o‘quvchilar bo‘lib, ular o‘rganayotgan manbalaridan ma’no topishga intilishidan kelib chiqadi. Zarur bo‘lganda shaxsan o‘zlari o‘z strategiyalarini yarata olishini nazarda tutadi. O‘quvchilar tomonidan

strategiyalardan foydalanilishni osonlashtirish uchun o'quv strategiyalarini guruhlash samarali hisoblanadi. ***Darsdan oldin foydalaniladigan, dars davomida*** va ***darsdan keyin foydalaniladigan*** singari turlarga guruhlash o'qituvchilar tomonidan o'rgatishda yengillikni maqsad qiladi. Strategiyalarni mazkur guruhlanishi ba'zida menejment ko'nikmalari va o'qishni tushunish singari tushunchalar bilan birgalikda o'qituvchilar uchun qo'llanma sifatida ishlaydi.

Darsdan oldin foydalaniladigan o'quv strategiyalari - darsga tayyorgarlik ko'rayotganda, o'quvchilar o'zlarining oldingi bilimlarini mazmunni moslashtirishlari, matn bo'yicha savollar tuzishlari, bashorat qilishlari va matn tuzilishi bilan oldindan tanishishlari va boshqalar kiradi. Darslarni auditoriyadan tashqarida boshlash amaliyoti darsdan oldingi bunday mashg'ulot o'quvchilarni yangi bilimlar bilan dastlabki tanishtirish uchun xizmat qiladi. Bu material bilan tanishishni talab qiladi. Masalan, o'quvchilarning darsdan oldin mavzuni o'qib chiqishi, tegishli media vositasi, video tomosha qilish, maqolalarni o'qish, o'yinlar va viktorinalarda ishtirok etishni ham o'z ichiga olishi mumkin. Darsni boshlashdan oldingi mashg'ulotlarning vazifasi o'quvchilarning bilim yukini kamaytirish hisoblanadi. Bu ularga dars vaqtida ma'lumotni oson, yanada samarali qayta ishlashga imkon beradi.



Dars davomida foydalaniladigan o'quv strategiyalari - jarayonda materialni o'zlashtirish uchun amaalga oshiriladigan amaliyotlar bo'lib, dastlabki bilimlarga tayanib o'rganish, turli xil ma'lumotlarni boshqarish, ahamiyatsiz ma'lumotlarni tashlab yuborish, jarayonni boshqarish va umumlashtirishni nazarda tutuvchi strategiyalar sanaladi.



Darsdan keyin foydalaniladigan o‘quv strategiyalari - olingan bilimlarni mustahkamlash orqali o‘quvchilar matn haqida o‘ylashlari, o‘rgangan narsalarini o‘zlashtirish uchun o‘z bilimlarining tuzilishini moslashtirishlari va mazmun haqidagi taxminlari to‘g‘risida xulosa chiqarishlari nazarda tutiladi.



Stressiz o‘rganishga yordam berish. O‘quvchilarning o‘qish uchun vaqt ko‘proq darsdan keyin emas, balki, oldin sarflanishi aniqlangan. O‘quv strategiyalari yordamida o‘rganish o‘quvchilarning yangi mazmunni o‘zashtirishda kognitiv yukni kamaytirishni maqsad qiladi. Aqliy “harakat”larning kuchayishi o‘quvchilarning o‘quv jarayonini o‘z-o‘zini tartibga solishga bo‘lgan ehtiyojini oshiradi. Juda ko‘p onlayn-oflayn materiallar o‘quvchilarni charchatishi mumkin, bu ularning ishtirok etishga tayyorligini kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Topshiriqlar



1. O'quv strategiyalarining yangi ko'rinishlari o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni rag'batlantirish, oson o'quv uslublarini o'rganish, kam vaqt mobaynida hajm va sifat jihatdan ko'lami katta ma'lumotlarni osonlik bilan o'zlashtirishga yordam berishini tushuntirishga hizmat qiluvchi materiallar topish.
2. O'quvchi tomonidan qo'yilgan maqsad, boshqa do'stlarining maqsadi bilan bir xil bo'lganda ularni guruhlash uchun olib boriladigan amalot algoritmini yaratish.
3. Maktab o'qituvchisining yangi o'quv strategiyalarini o'rganish va foydalanish omillarini, imkonini swot tahlil asosida tahlil qilish.
4. Muvaffaqiyatga erishish uchun birgalikda o'rganish, o'qish muammosini hal qilishda yordam beruvchi omillar topish.
5. O'quvchilar uchun samarali o'qishga turtki bo'luvchi pedagogik ko'rsatmalar ro'yhatini shakllantirish.

II BOB. O‘QUVCHILARNI O‘QUV STRATEGIYALARIGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

2.1 5, 6- sinf o‘quvchilariga fanni oson o‘zlashtirishga yordam beruvchi o‘quv strategiyalarini o‘rgatishning mazmuni va imkoniyatlari

Maktabda ma’lum fanni o‘rganish 5 hamda 6 sinf yosh davridagi o‘quvchilar uchun juda qiziqarli jarayon bo‘lishi bilan birga juda muhim davr ham hisoblanadi. Sababi, ayni davr oddiydan murakkabga o‘tish bosqichi hisoblanadi.

Fanlardan o‘quvchi darslik kitobi hamda ish kitobidan iborat kitoblarda mavzular yuzasidan bir vaqtning o‘zida ham nazariy ham amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi.



1. So‘z boyligini rivojlantirish strategiyalari. So‘z boyligini kengaytirish 5, 6- sinf o‘quvchilari uchun muhim jihatlardan biridir. Bu o‘qilgan narsalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va yozish sifatini yaxshilaydi. Kontekstdagi yangi iboralar, so‘zlar bilan tanishtirish va bilimlarni mustahkamlash uchun qiziqarli mashg‘ulotlardan foydalanish talab etiladi.

Misol:

Kun yoki hafta davomida yodlangan so‘z boyligi diagrammasi yoki sandig’i.

So‘z o‘yinlari: krossvordlar yoki so‘zlarni qidirish kabi o‘yinli strategiyalar.

Ijodiy yozma topshiriqlar, yangi lug'at, iboralar, tushunchalardan amaliy foylanish.

2. Tushunish strategiyalari. Ayni yoshdagi o'quvchilarga o'qiganlarini tushunish va tahlil qilishni o'rgatish juda muhimdir. Bunga mavzular, personajlar va syujetlarni muhokama qilish, shuningdek, haqiqiy hayot bilan aloqalarni o'rnatish ham kiradi. Tushunish strategiyalari tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va keyingi o'rganish uchun asos yaratadi.

Misol:

Mavzularini sinf muhokamasidan o'tkazish.

Mavzuga doir hikoya xaritalarini yoki vaqt jadvallarini yaratish.

Belgilar yoki voqealarni taqqoslash texnikalari.

Mavzu dminantlarini aniqlash, taqqoslash, tushunish va tahlil qilishni o'z ichiga olgan tushunish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi materiallardan foydalanish.



3. Yozma nutq bo'yicha mahorat darslari

Yozish ko'nikmasini oshirish uchun ma'lum vaqt ajratilgan bo'lib, jumladan,

5-sinfda til o'rganishning asosiy tarkibiy qismi siftaida alohida darslar, mavzular ajratilgandir.

Misol:

Master-klasslar o'quvchilarga amaliyot va tengdoshlarning fikr-mulohazalari orqali yozish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ushbu mashg'ulotlar g'oyalarni tuzish, tavsiflovchi adabiy tildan foydalanish va shaxsiy yozish uslubini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Haftalik yozma ijodiy yozish topshiriqlar.

Darsda o'quvchilar konstruktiv fikr bildiradigan va qabul qiladigan tengdoshlarni ishlarini ko'rib chiqish qismlari.

4. Turli xil o'qish materiallarini o'rganishni rag'batlantirish

5,6-sinfda fanlarni yaxshi o'zlashtirish (masalan, ingliz tilini yaxshi o'rganish) uchun o'qituvchi o'quvchilarni turli xil o'qish materiallaridan o'rganishga undash juda muhimdir. Ushbu bosqichda ularning o'qish vaqtlarini kengaytirish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi va turli xil yozish uslublari va janrlari bilan tanishtiradi. Turli xil o'qish materiallari, shuningdek, so'z boyligi va tushunish qobiliyatini ham oshiradi.

Misol:

Oylik kitobxonlik klubi yoki mavzu o'qish to'garagini tashkil qilish.

Onlayn kutubxona tashkil etish.

Kitobxonlar suhbatlari va b.



5. Dramaturgiya va nutqni rivoltantirish.

Muqobil matn: davom etayotgan munozaraning vektorli tasvirini yaratish. Dramaturgiya va nutq darslari til ko'nikmalarini yaxshilaydi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Ular ijodiy ifoda etish va nutq va tinglash qobiliyatlarini ham oshirishga imkon beradi.

Misol:

Sinf o'yinlari yoki sahna ko'rinishlarini tashkil qilish.

Tegishli mavzular bo'yicha rolli munozaralar o'tkazish.

Kitoblar yoki loyihalarning og'zaki taqdimotlarini rag'batlantirish.

5,6- sinfda fanlarni o'rganish bo'yicha strategiyalar

Amaliy tajribalar va namoyishlar. 5,6- sinfda fanlarni (jumladan ingliz tilini) o'qitishning eng samarali usullaridan biri bu amaliy

tajribalardir. Ushbu mashqlar mavhum tushunchalarni aniq qiladi va chuqurroq tushunishga yordam beradi. O'quvchilarni ushbu tajribalarni kuzatish, bashorat qilish va xulosalar chiqarishga undaydi.

Misol:

Onlayn, jonli muloqot.

Dublaj kabi tajribalarni o'tkazish.

Parashut strategiyasi. Parashutdan sakrash jarayonida qaysidir amallarni bajarish majburiyligi singari shunaday majburiy amallarni tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Axilles to'voni (ojiz hudud, zaif nuqta) startegiyasi. Darslarga to'g'ri tayyorgarlik ko'rishda eng kichik o'zlashtirilmagan bo'lakning ahamiyatlilik ehtimolini hisobga olishni o'rgatish uchun tavsiya etiladi. Bu qiyin vazifani quyidagilarga taqsimlab amalga oshirishni nazarda tutadi:

- qayta ko'rib chiqish-yordamchi resurslardan foydalanish;
- o'ziga ishonch yoki tashkiliy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- faollikni oshirish usullari, yetakchilik;
- topshirolmaganini oshig'i bilan topshirish hohishi;
- darsdan oldin tegishli videolar tomosha qilish;
- dars boshlanishidan oldin uy vazifasini takrorlash;
- jismoniy mashqlar va sinfdan oldingi mashg'ulotlar o'quvchilarning ish faoliyatini yaxshilash uchun yordam beradi;
- o'z-o'zini tartibga solish.

Tayyorgarlik ishlarida qatnashish o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan say-harakatlarini kuchaytiradi va ularni muntazam ravishda o'rganishga undaydi. Sinovlarni yuqori motivatsiyaga ega bo'lganlar yaxshi ishlaydi.

Doimiy test olish. Testlar o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarini yaxshilamasa-da, ularni muntazam ravishda mashq qilishga undaydi.



O‘zini o‘zi boshqarish. Darsdagi o‘qituvchi va o‘quvchilarning rollari mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin yoki mashg‘ulotlar davomida ham o‘zgaradi. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilar o‘zlarini qanday boshqarishni bilishlari kerakligini va o‘z ta’limlari uchun javobgarlikni o‘z zimmlariga olishlari muhimligini anglatadi. Darslarga tayyorgarlikni o‘zlari nazorat qilishlari zarur. Bunday tayyorgarlik o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi. O‘z-o‘zini tartibga soluvchi ta’lim o‘quv strategiyalarini ishlab chiqishda dars boshlanishidan oldingi akademik ko‘rsatkichlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi hamda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarni o‘rganishga undash. Pedagog sifatida o‘quvchilarning faoliyatini tartibga solish muhim. Ular rivojlanishlari uchun o‘quv strategiyalari talab qilinadimi yoki yo‘qligini hal qilish orqali qanday o‘rganishlarini kuzatib borish muhim.

Muhim ishtirokchi bo‘lish. Har bir dars mashg‘ulotini tashkil qilishda har bir o‘quvchi muhim ishtirokchi sifatida: nima kutishlarini bilishlari ahamiyatli hisoblanadi. Darsga tayyorgarlik materiallari mashg‘ulotlar boshlanishidan bir necha kun oldin tarqatilishi kerak, shunda o‘quvchida qatnashish uchun hohish, fikrlar va vaqt bo‘ladi

Muntazam jalb qilish. Dars boshlanishiga yaqinroq, asosan dars kuni, o‘rtacha o‘quvchilar orasida eng katta o‘zgaruvchanlik kuzatilgan yuqori va past akademik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganlarga ham doimiy topshiriqlar berish. Muvaffaqiyatli o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar materialni “yangilash” uchun, akademik ko‘rsatkichlari past bo‘lganlariga esa kechikish bilan bog‘liq, o‘rtacha ko‘rsatkichga ega bo‘lganlar uchun bu materialni tushunish uchun bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Eugene Ndabaga va boshqalar [44] o‘quvchilarning uchta guruhini ajratib ko‘rsatdi, ularning har biri turli xil o‘quv strategiyalariga talab etadi:

a) “bilimli va o‘ziga ishongan” guruh – ular video va o‘qish haqida kamroq ma’lumot oladi, ammo topshiriqlarni tezda bajaradi, sabab: darslarni boshlashdan oldin materiallardan biroz ko‘proq foydalanadi;

b) “o‘ziga ishongan odamlar” guruhi- o‘ziga ishimchi behad kuchli, ammo doimiy akademik muvaffiqiyatlarga ega emas.

d) “diqqatli yangi boshlanuvchilar” guruhi- ular tirishqoq, ammo mavzu bilan tanish emas tarkibga kirishadi.

D. Holzberger [25] atigi 5 hafta ichida o‘quvchilarning o‘quv strategiyalaridagi o‘zgarishlarni aniqladilar. Bu o‘quvchilarning o‘quv strategiyalariga moslashuvchanligini ko‘rsatadi.



Maktab – o‘zaro ta’sir maydoni.

Dars boshlanishidan oldin ham, sinfda ham mashg‘ulotlar muhim bo‘lsa-da, ba’zilar maktab ichidagi atmosferani ko‘proq muhim deb hisoblashadi O‘rganishni chuqurlashtirishda sinfdagi mashg‘ulotlar yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda bilim olish bilan bir qatorda, tajribali odamlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishni ham nazarda tutiladi. Vazifalar va qarorlar qabul qilinganda, yangi bilim va muammolar yangi aloqalarni ochadi. Sinfidagi mashg‘ulotlar guruh dinamikasi hissiy, o‘zaro ta’sirga va o‘quv jarayoniga jalb qilishga yordam beradi. Bu esa tengdoshlarga bo‘lgan sadoqatning kuchayishiga olib keladi.

Sinf mashg‘ulotlari “ramka yaratish jarayoni” ni talab qiladi, bu yerda o‘quvchilar tengdoshlari va o‘qituvchilardan imkoni bo‘lguncha tavsiyalar oladi,

muammolarni o‘zi hal qiladi. O‘zaro ta’sirning kengayishi tufayli ular o‘rtasidagi chuqurroq munosabatlarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi, individual tavsiyalar va fikr-mulohazalarni olish va qo‘llab-quvvatlash tezroq amalga oshiriladi.

Klaster tahlili. Tahlil o'tkazilishi o'quvchilarga xos strategiyalarni aniqlashga yordam beradi. Quyidagi ma'lumotlarga asoslanadi: xususiyatlari, idrok etishi, videoni o'qish va tomosha qilish kabi faoliyatga asoslangan xatti-harakatlar asosida tasniflanadi. Ikki bosqichli klaster tahlilida ularning faoliyati va akademik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga harakat qilinadi. O'quvchilarning ikki guruhi aniqlanadi. Birinchi guruh darsni tugatgandan so'ng o'rtacha onlayn manbalarga kirish huquqiga ega bo'ladi, ammo oldin haftalik baholar olish sharti bilan. Mashg'ulotlar birinchi guruh bilan o'tkaziladi. Ushbu guruhning dars boshlanishidan oldin o'quv strategiyalari haqida **dastlabki tushunchaga ega bo'lishga** qaratilgan materiallarni ko'rib chiqish uchun onlayn manbalardan foydalanish tavsiya etiladi. Resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu guruh onlayn materiallar bilan tanishish va ularni o'rganish va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish uchun darslar boshlanishidan oldin tushunishga intilishi muhim.

2.2 O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonining individuallashtirish darajalari. O'quv jarayonini strategik yondashuv asosida loyihalash. O'quvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatish jarayonini individuallashtirish darajalari

O'quvchilar tomonidan strategiyalardan foydalanilishni osonlashtirish uchun o'quv strategiyalarini guruhlash samarali hisoblanadi. ***Darsdan oldin foydalaniladigan, dars davimida va darsdan keyin foydalaniladigan*** singari turlarga guruhlash o'qituvchilar tomonidan o'rgatishda yengillikni maqsad qiladi. Strategiyalarni mazkur guruhlanishi ba'zida menejment ko'nikmalari va o'qishni tushunish singari tushunchalar bilan birgalikda o'qituvchilar uchun qo'llanma sifatida ishlaydi.

Darsdan oldin foydalaniladigan strategiyalar - darsga tayyorgarlik ko'rayotganda, o'quvchilar o'zlarining oldingi bilimlarini moslashtirishlari, matn bo'yicha savollar tuzishlari, bashorat qilishlari va matn tuzilishi bilan oldindan tanishishlari va boshqalar kiradi.

Dars davimida foydalaniladigan strategiyalar - jarayonda materialni o'zlashtirishda dastlabki bilimlarga tayanishi, turli xil ma'lumotlarni boshqarishi, ahamiyatsiz ma'lumotlarni tashlab yuborishi, ushbu jarayonlarni boshqarishi va umumlashtirishini nazarda tutadi.

Darsdan keyin foydalaniladigan strategiyalar - olingan bilimlarni mustahkamlash orqali o'quvchilar matn haqida o'ylashlari, o'rgangan narsalarini o'zlashtirish uchun o'z bilimlarining tuzilishini moslashtirishlari va mazmun haqidagi taxminlari to'g'risida xulosa chiqarishlari nazarda tutiladi.

O'quvchilarning mustaqil ta'limi darsdan oldingi hamda keyin foydalaniladigan strategiyalarga asoslanadi.

- Darsdan oldin foydalaniladigan strategiyalar – tayyorgarlik,
- Dars davomida foydalaniladigan strategiyalar – ishlov berish,
- Darsdan keyin foydalaniladigan strategiyalar – mahkamlash ko'nikmalariga asoslanadi.

So'nggi yillarda o'quv strategiyalari bo'yicha nazariy, empirik yoki amaliy tadqiqotlarda bir nechta turdagi tendentsiyalar yoritilayotganligini ta'kidlash lozim. Ammo, Bizning nuqtayi nazarimizda, eng muhim tendentsiyalardan biri bu o'quv strategiyalarini tadqiq qilishda individual shaxs yondashuviga asoslangan kuchli nazariy asosni shakllantirishdir. Strategik o'quv yondashuvlarini o'rganish, amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, rivojlantirishga qaratilgan tendentsiya o'zini oqlaydi deya olamiz. O'z tadqiqotimiz doirasida o'quvchilar maktablarda bilim olishga bo'lgan qiziqishini yo'qotganliklarini his qilganlarida *o'rganish irodasini* shakllantirishga yordam beradigan motivatsion, ta'sirchan va munosabat strategiyalaridan unumli foydalanish ham maqsadga muvofiq.

O.Banion konstruktivistik (yangi) bilim o'rganuvchilarda allaqachon mavjud bo'lgan bilimlar tarmog'iga nisbatan yaratiladi degan qarashni targ'ib qiladi. Dunyo avvalgi tushunchalar tarmog'idan talqin qilinadi va "bilim har bir o'quvchi tomonidan dunyo va o'quvchining aqliy modellari haqidagi tasavvurlari hisobidan qurilgan" degan g'oyasi ushbu masalada ayniqsa ahamiyatli hisoblanadi. Muallif har qanday yangi o'rganilayotgan bilim yoki ma'lumot oldingi o'rganilganlariga tayanishi

lozimligi va ularning ierarxik mutanosib davomi sifatida shakllantirilishini tushuntiradi. O'quvchi o'zida bor bilim darajasining navbatdagi bosqichidagi ma'lumotlarni tanlab o'rganishi uni bilimini mustahkamlashni kafolatlaydi. O'z darajasiga nomutanosib, lekin zarur darajadagi axborotlarning majburiy singdirilishi orqali o'rganilgann bilimni sifatsiz ko'nikmaga aylanishiga va o'rtadagi o'rganilmasdan qolgan darajaning bo'shlig'i hosil bo'lishi hisobiga belgilangan maqsadga erishishdagi qaysidir bosqichda uddalay olmaslik yuzaga keladi. Fikrimizni yanada ochiqlash maqsadida xorijiy tillarni o'qitish amaliyotidagi tajribalardan foydalanamiz. O'quvchini yangi darajadagi bilimni egallashdan oldin o'zi ega bo'lgan darajani aniqlab olish uchun turlicha diognostik yondashuvlar asosida bilim darajasi aniqlash hozirgi kunda tarqalgan usul bo'lib, natija asosida navbatdagi darajaga muvofiq adabiyot yoki axborot bilan ishlash shakllanatiladi. Masalan, o'quvchi ingliz tilidan bilish darajasi B1 darajada bo'lsa, unga navbatdagi B2 darajadagi darslarni o'rganish muvofiq deb topiladi. B2 darajadagi ma'lumotlarni o'zlashtirib bo'lgach, navbatdagi C1 darajadagi ma'lumotlarni o'rganish tavsiya qilinadi. Agar o'quvchi B1 darajadan so'ng C1 darajani o'rganishni lozim topib, ushbu darajani maksimal o'rgansada o'rtadagi B2 darajadagi axborotni o'rganmaslik oqibatida imtihonlarda aynan B2 darajaga muvofiq jihatlarni to'liq anglay olmasligi hamda C1 darajadagi ma'lumotlarni o'rganishda B2 darajani o'rganib keyin navbatdagi darajani o'rgangan o'quvchiga nisbatan qiyinchilik bilan o'rganishi kuzatilgan. Ushbu tahliliy ko'rsatmalarga binoan o'quvchilarga o'quv jarayoniga strategik yondashuvning ahamiyatini ochib beruvchi misol sifatida yondashildi. Mazkur yondashuv xorijiy tillarni o'qitishda o'zining ijobiy natijalarini kafolatlab borayotgan ayni vaqtda har bir umumta'lim fanlari miqyosida shu singari amaliyotlarni qo'llanilishi ijobiy natijalar berishi prognoz qilinmoqda. Zaruriy ma'lumotlarni o'rganishi ularda mavjud bilimlar bilan xronologik bog'liqligini aniqlash, saqlash muhim hisoblanadi va bu ularni ma'lumot olish uchun faol o'quv strategiyasiga, oson o'rganish usullariga ehtiyoj sezishga undaydi. Natijada o'quvchilar o'zlarining idroklarida mavjud va

o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlar darajalari va turlarini tushunishga imkon beradi.

2.3 O'quv strategiyalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni sifatini nazorat qilish va natijalarni baholash

O'qituvchilar mashg'ulotlardan kutilayotgan natijalarni aniqlab olmasligi sabab dars yakunida nimaga erishilgani, nimalar qolib ketgani haqida aniq xulosa qilishi qiyin kechadi.

Dars natijasining ahamiyati. Dars natijasi dars davomida erishilishi kutilayotgan aniq bilim, tushuncha, ko'nikmalar hisoblanadi. Sodaroq qilib, darsdan kutilmalar deyish mumkin.

Dars maqsadining mavjudligi: o'quvchilarning diqqatini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi; o'qituvchiga aniq yo'nalishlar beradi va darsni tartibli o'tkazishga undaydi; darsdan so'ng qaysi natijalarga erishilganini baholash imkonini yaratadi.

Dars natijasini ishlab chiqish. Dars natijasini ishlab chiqishda quyidagilarga diqqat qilish lozim: o'quv dasturiga moslik; ma'lum bir dars orqali o'quvchilarning nimalarni bilishi, tushunishi, o'zlashtirishi haqida o'ylab chiqish;

Aniqlik va o'lchash imkoniyati. Natijalarni o'lchab mumkin bo'lgan variantga keltirish kerak. O'quvchilarning darajasiga va imkoniyatlariga moslikni belgilash kerak. Kutilmalar haddan tashqari qiyin yoki oson bo'lmasligi lozim. Turli davrlar uchun alohida natijalar ishlab chiqish. Dars bir necha qismlardan iborat bo'lishi mumkin. Har bir qism uchun alohida natijalarni belgilab chiqish foydali bo'ladi. Masalan, darsning yangi mavzu bayoni bosqichini kirish, asosiy va yakunlovchi kabi uch qismga ajratish mumkin. Ana shunda quyidagicha kutilmalarni belgilash imkoni bo'ladi. Natijalarni bunday tarzda belgilash o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshiroq nazorat qilib borish va keyingi bosqichga qachon o'tishni aniqlashda yordam beradi.

Kutilmalarning yuqori kognitiv darajada bo'lishi. Natijalar o'quvchilarning biror narsani bilishi, eslab qolishi kabi quyi kognitiv darajada bo'lmasligi maqsadga muvofiq. Buning o'rniga natijalarni

qo‘llash, tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, baholash yoki ijodiy yondashish kabi darajalarda belgilash darsning samarasini yanada oshiradi.

O‘quvchilar qiziqishi va motivatsiyasi. Natijalar orasida o‘quvchilarni qiziqtiradigan, mavzuni o‘rganishga motivatsiya uyg‘otadigan kutilmalar ham bo‘lgani ma’qul. Statistik ma’lumotlar mavzusini o‘quvchilar uchun qiziqarli va jozibador qiladi.

Natijalarni aniqlashda quyidagi parametrlar inobatga olinadi:

Maqsad aniq va tushunarlimi?

Natijani o‘lchash yoki xulosa chiqarish imkoni bormi?

Natija fanning o‘quv maqsadlari hamda dasturiga mos keladimi?

Maqsadga erishib bo‘ladimi?

Natijaga erishish vaqti aniqmi? (Masalan, darsning kirish qismida yoki oxirida kabi)

Maqsadni o‘quvchilarga aytish kerakmi?

Darsdan kutilayotgan natijalarni dars boshidayoq o‘quvchilarga aytish foydali.

- Aniq yo‘nalish berish.
- Motivatsiyani oshirish.
- O‘z-o‘zini baholash imkoniyati.

Topshiriqlar.

➤ O‘quv startegiyalarining yosh davrlaridagi xususiyatlariga mutanosibligini ta’lim jarayonini tashkil etish jarayonini samarali bo‘lishida muhim jihatlarni jadvalini tuzish.

➤ O‘quv strategiyalaridan foydalanilishni osonlashtirish uchun o‘quv strategiyalarini guruhlash usullarini tasnifini yaratish. Darsdan oldin foydalaniladigan, dars davomida va darsdan keyin foydalaniladigan singari turlarga guruhlash ishlarini amalga oshirish.

➤ O‘quvchi o‘zining bilim darajasini navbatdagi bosqichidagi ma’lumotlarni tanlab o‘rganishiga yordam beruvchi texnikalar tuzish.

➤ O‘qituvchilar mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalarni aniqlashiga yordam beruvchi, dars yakunida nimaga erishilgani, nimalar qolib ketgani haqida aniq xulosa qilishiga yordam beruvchi vositalarni aniqlash.

KURS TOPSHIRIQLARI

O'qituvchilarda o'quv strategiyalarini o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin. Bu topshiriqlar o'qituvchilarga o'quvchilarga samarali o'quv strategiyalarini o'rgatishda yordam beradigan usullarni o'zlashtirishga qaratilgan.

O'quv strategiyalarini tahlil qilish.

Topshiriq: O'qituvchilarga o'quvchilarga qanday o'quv strategiyalarini o'rgatish mumkinligi haqida tahlil qilishni topshiriladi. O'qituvchilar har bir strategiyani tasvirlab, ularning afzalliklari va kamchiliklarini yozishlari kerak.

Maqsad: O'qituvchilarning o'quv strategiyalarini tahlil qilish va samarali foydalanish bo'yicha bilimlarini rivojlantirish.

O'quvchilarga o'rgatishning o'zgaruvchan yondashuvlarini tahlil qilish

Topshiriq: O'qituvchilarni turli o'quv uslublari bilan tanishtirish (vizual, kinestetik, audial). Ular har bir uslub bo'yicha misollar keltirishi va bu uslublarni sinfda qanday qo'llash mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Maqsad: O'qituvchilarning o'quvchilarning turli o'qish uslublariga mos keladigan strategiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv strategiyasini amaliyotda sinash.

Topshiriq: O'qituvchilarga o'z sinfida o'quvchilarga biror o'quv strategiyasini o'rgatish uchun reja tuzishlarini so'raladi. Keyin, ular o'z rejasini sinfda amalda sinab ko'rishlari va natijalarini tahlil qilishlari kerak.

Maqsad: O'qituvchilarni o'quv strategiyalarini amalda qo'llashni o'rgatish va ular bilan ishlashga tayyorlash.

Baholash

Topshiriq: O'qituvchilarga o'quvchilarning faoliyatini baholash uchun turli metodlarni o'rgatish va ularga o'quvchilarning strategiya bo'yicha ishlashini qanday kuzatish va baholashni o'rgatishni nazarda tutadi.

Maqsad: O'qituvchilarga o'quvchilarning o'quv strategiyalariga asoslangan faoliyatini to'g'ri baholash va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Guruhda ishlash strategiyalarini o'rgatish

Topshiriq: O'qituvchilarga guruh bo'lib ishlash strategiyalarini o'rgatish uchun guruhlar ichida bahs-munozara tashkil qilishni topshiriladi. Har bir guruh o'zining ishlab chiqqan strategiyalarini boshqa guruhga taqdim etishi kerak.

Maqsad: Jamoaviy ishlashni tashkil etish va guruhlarga ko'mak berish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Refleksiyani rivojlantirish

Topshiriq: O'qituvchilarga darsdan so'ng o'quvchilarning o'rgangan strategiyalarini qanday tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish kerakligini tushuntiruvchi bir nechta misollar tayyorlash vazifasini berishni nazarda tutadi.

Maqsad: O'qituvchilarga o'quvchilarning yutuqlari va muammolarini tahlil qilish orqali o'quv jarayonini takomillashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Yordam

Topshiriq: O'qituvchilarga o'quvchilarga murakkab vazifalarni qanday yengillashtirish uchun va boshqarish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish topshirig'ini beriladi. O'qituvchilar misollar keltirib, o'z yondashuvlarini yaratishlari kerak bo'ladi.

Maqsad: O'qituvchilarning qiyin vazifalarni samarali boshqarish ko'nikmalarini va o'quvchilarga yordam berish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Multimediali o'quv resurslarini ishlatish

Topshiriq: O'qituvchilarni multimediali o'quv materiallari bilan ishlashga o'rgatishni nazarda tutadi, buning uchun ularga turli xil vizual, audio yoki video materiallar tayyorlashni topshiriladi. Ular ushbu materiallardan qanday foydalanishni ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Maqsad: O'qituvchilarni multimediali resurslar yordamida o'quvchilarning qiziqishini oshirish va samarali o'quv jarayonini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quvchilarga mustaqil o'rganishni rejalashtirishni o'rgatish.

Topshiriq: O'qituvchilarga o'quvchilarga mustaqil o'qish strategiyalarini o'rgatish bo'yicha mashqlar ishlab chiqish topshiriladi.

Bunga mustaqil o'qish uchun o'z-o'zini nazorat qilish va samarali o'qish usullarini o'rgatish vazifalari kiradi.

Maqsad: O'qituvchilarni o'quvchilarga mustaqil o'qishni o'rgatishga va ularning o'qish samaradorligini oshirishga yordam berishni maqsad qiladi.

Takrorlash

Topshiriq: O'qituvchilarga o'quvchilar uchun takrorlash va mustahkamlash bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishni topshiriladi. Bu o'quvchilarning ma'lumotlarni uzoq muddatli eslab qolishlariga yordam beradi.

Maqsad: O'qituvchilarga o'quvchilarning eslab qolish ko'nikmalarini oshirish va mustahkamlash strategiyalarini o'rgatish.

Tugallanmagan topshiriqlar

Topshiriq: O'qituvchilardan tugallanmagan topshiriqlarni yaratishni va ularni o'quvchilarga qanday qilib o'rgatish haqida fikr bildirishlarini so'raladi. Bu o'quvchilarning o'rganish jarayonini davom ettirishni ta'minlashga yordam beradi.

Maqsad: O'qituvchilarda o'quvchilarning o'rganish jarayonini rivojlantirish va ularning motivatsiyasini oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu topshiriqlar o'qituvchilarning o'quv strategiyalarini o'rgatish va o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida samarali va moslashuvchan bo'lishlariga yordam beradi.

O'QUVCHILAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. Ma'lumotni tahlil qilish

Topshiriq: O'quvchilarga biror matnni (maqola, hikoya, ilmiy ish) taqdim eting va ular ushbu matndan asosiy fikrlarni ajratib, tahlil qilishlari kerak. Keyin esa, olingan ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan qisqacha izohlashlari kerak.

Maqsad: Matnni anglab olish va ma'lumotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

2. Brainstorming (Yangi fikrlarni yaratish)

Topshiriq: O'quvchilarga bir mavzu yoki savol berib, ular qaysi fikrlar yoki tushunchalarni o'ylashlarini so'rashingiz mumkin. Keyinchalik, bu fikrlarni guruh bo'lib muhokama qilishni tashkil eting.

Maqsad: Yangi g'oyalar yaratish va kreativ fikrlashni rivojlantirish.

3. Kritik fikrlashga undash

Topshiriq: O'quvchilarga biror masala yoki qiziqarli savolni taqdim eting, ularning bu savolga munosabatini va fikrlarini so'rashingiz mumkin. Keyin, ularga bu fikrni dalillar bilan asoslashni va qaror qabul qilishni o'rgatish.

Maqsad: Mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.

4. Venn diagrammasi yaratish

Topshiriq: O'quvchilarga ikki yoki uchta tushuncha yoki obyektning taqqoslash uchun Venn diagrammasini yaratishni topshiring. Ular qaysi jihatlar o'xshash va qaysi biri farq qilishini ko'rsatishlari kerak.

Maqsad: Taqqoslash va farqlash qobiliyatini oshirish.

5. Tajriba

Topshiriq: O'quvchilarga ilmiy yoki matematik tajriba o'tkazish topshirig'ini bering. Bu tajriba nazariyani amaliyotga tatbiq etish uchun imkoniyat yaratadi.

Maqsad: Tajriba o'tkazish va amaliy bilimlarni o'zlashtirish.

6. Qisqa savollar

Topshiriq: O'quvchilarga matn yoki dars bo'yicha qisqa savollar berib, ularning javoblarini tekshiring. Bu savollarni takrorlash va o'rganilgan ma'lumotni mustahkamlash uchun ishlatishingiz mumkin.

Maqsad: Tez va aniq ma'lumot olish va o'zlashtirishni yaxshilash.

7. Rollarni o'ynash

Topshiriq: O'quvchilarga turli rollarni (masalan, tarixiy shaxslar yoki hayotiy holatlar) o'ynashni so'rang. Bu ularga o'qigan ma'lumotni real hayotda qanday qo'llash mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Maqsad: O'rgangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va ijodiy fikrlash.

8. Loyihani rejalashtirish

Topshiriq: O‘quvchilarga kichik bir loyiha yoki tadbirni rejalashtirishni topshiring. Bunda, ularga vazifalarni rejalashtirish, vaqtni taqsimlash va resurslarni boshqarish kerak bo‘ladi.

Maqsad: Loyihani rejalashtirish va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.

9. Guruhda ishlash

Topshiriq: O‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘ling va har bir guruhga ma’lum bir vazifa yoki mavzu bering. Guruhlar bir-biriga o‘z ishlarini taqdim etsin va muhokama qilsin.

Maqsad: Jamoaviy ishlash va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

10. Fikrni yozma bayon etish

Topshiriq: O‘quvchilarga muayyan bir mavzu yoki savolni tanlab, uni yozma ravishda bayon etishni topshiring. Bu topshiriq o‘quvchilarga o‘z fikrlarini tizimli va mantiqiy ravishda ifodalashga yordam beradi.

Maqsad: Yozma ifoda qilish va fikrni aniq bayon etish ko‘nikmalarini oshirish.

Bu topshiriqlar o‘quvchilarning har xil strategiyalarga asoslangan o‘rganish jarayonini faol rivojlantirishga yordam beradi.

AMALIY MAHG‘ULOTLAR TOPSHIRIQLARI

Umumiy tushuncha uchun materaillar tayyorlash

O‘qituvchilarga o‘quv strategiyalarini samarali o‘rgatish va ulardan amaliyotda qanday foydalanish mumkinligi haqida tushuncha berish materiallari mazmuni:

Tarqatma materiallar to‘plami tayyorlash.

Maqsad: O‘quv strategiyalarining mohiyatini tushunish, ular qanday ishlaydi va o‘quvchilarga qanday yordam berishini anglashga yordam beruvchi vositalar tayyorlanadi.

Mazmun: o‘quv strategiyalari — bu o‘quvchilarni o‘rganish jarayonida qo‘llaydigan usullar va texnikalar ekanini yetkazish. “O‘quv strategiyalari o‘quvchilarga ma’lumotlarni samarali o‘zlashtirishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, va o‘qish va yozishda yuqori ko‘nikmalarga erishishga yordam beradi.”

Asosiy turdagi o'quv strategiyalar turlarini tushuntirish uchun materiallar tayyorlash

Mazmun:

1. Kognitiv strategiyalar : Eslab qolish va tushunishning samarali usullari (masalan, takrorlash, tahlil qilish).

2. Metakognitiv strategiyalar: O'qish va o'rganish jarayonini boshqarishda foydalaniladi (masalan, o'zini nazorat qilish, o'rganishning samaradorligini baholash).

3. Motivatsion strategiyalar: O'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini va rag'batini oshirishda foydalaniladi.

4. va boshqalar.

Amaliy mashq: Har bir o'quv strategiyasiga misollar keltirishni shakllantirish va o'quvchilarga ulardan qaysi biri o'z darslarida samarali bo'lishi mumkinligini muhokama qilishga chaqirishga asoslanadigan mashg'ulot.

O'qituvchilarga o'quvchilarga samarali o'quv strategiyalarini qanday o'rgatishni tushuntirish. O'quvchilarga qanday qilib o'quv strategiyalarini o'rgatish mumkinligini aniqlash.

Mazmun:

1. Modellashtirish: O'qituvchi o'quvchilarga strategiyani qanday ishlatish kerakligini ko'rsatadi.

2. Mustahkamlash: O'quvchilarni o'quv strategiyalarini mustahkamlash uchun turli topshiriqlar va mashqlar bilan rag'batlantirish.

3. Refleksiya: O'quvchilarga o'rgangan strategiyalarni baholash va ulardan qanday foydalanishni tahlil qilish imkoniyatini berish.

Amaliy mashq: O'qituvchilar o'z sinfida qanday strategiyani o'rgatishni rejalashtirishi va uni qanday ishlatishlarini amaliyotda ko'rsatish.

O'quvchilarning o'rganish usullariga mos strategiyalarni tanlashni o'rganish.

Maqsad: O'qituvchilarga turli o'quvchilar uchun turli strategiyalarni tanlashda yordam berish, o'quvchilarning turli o'quv uslublarini hisobga olgan holda, har bir o'quvchi uchun mos strategiyalarni tanlashni rivojlantirish.

Mazmun:

O'quv uslublarini aniqlash:

- Vizual o'quvchilar: Rasmlar, diagrammalar, videolar va grafiklar bilan ishlash.
- Audial o'quvchilar: Esitish, nutq orqali tushuntirish, musiqaviy vositalar.
- Kinestetik o'quvchilar: Amaliy mashqlar, eksperimentlar, qo'l bilan ishlash.

O'quv strategiyalarini baholash va o'lchash

Maqsad: O'qituvchilarga o'quv strategiyalarining samaradorligini qanday baholashni o'rgatish.

Mazmun:

Baholash metodlari:

1. Testlar va savollar: O'quvchilarning tushunishini tekshirish uchun qisqa savollar va testlarni ishlatish.
2. Muzokara va guruh ishlari: O'quvchilarning bir-biriga qanday yordam berishini kuzatish.
3. Portfoliolar: O'quvchilarning yutuqlarini va rivojlanish jarayonini kuzatish uchun portfoliolar yaratish.
4. Kuzatish:

Metakognitiv baholash: O'quvchilarga o'z o'rganish jarayonlarini baholashni o'rgatish, ya'ni ular o'rgangan strategiyalarni qanday va qachon ishlatishlarini tushunish.

Amaliy mashq:

O'qituvchilar o'quvchilarning o'rganish jarayonini baholash uchun bir nechta metodlarni tanlab, bu metodlarni sinfda qanday qo'llash mumkinligini muhokama qiladi.

Motivatsiya va o'quvchilarga qiziqish yaratuvchi strategiyalar

Maqsad: O'qituvchilarga o'quvchilarda motivatsiya va qiziqishni oshirishga yordam beruvchi strategiyalarni o'rgatish.

Mazmun:

- Motivatsiya strategiyalari:

1. O'z-o'zini rag'batlantirish: O'quvchilarni o'z yutuqlariga e'tibor qaratish.

2. O'quvchilarni o'zingizning shaxsiy tajribangiz bilan ilhomlantirish: O'qituvchilar o'quvchilarga o'z yutuqlarini ko'rsatish orqali motivatsiya berish.

3. Tanlovlar va mukofotlar: O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun rag'batlantiruvchi tizim yaratish.

Amaliy mashq: O'qituvchilar turli motivatsion strategiyalarni ishlab chiqib, ularni o'quvchilarga qanday o'rgatishni rejalashtirish.

Dars rejalariga o'quv strategiyalarini integratsiya qilish.

Maqsad: O'qituvchilarga o'quv strategiyalarini dars jarayoniga qanday integratsiya qilishni ko'rsatish.

Mazmun: o'quv strategiyalarini dars rejasida qanday qo'llash mumkinligi haqida misollar:

1. Faol darslar: O'quvchilarni o'rganishga faollashtirish uchun interaktiv usullarni qo'llash.

2. Yangi o'quv materiallari: Darsda o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish uchun turli resurslar va metodlarni tanlash.

Amaliy mashq: O'qituvchilar dars rejalarda o'quv strategiyalarini qanday integratsiya qilishlarini ko'rsatib berishlari kerak.

Ushbu materiallar o'qituvchilarga o'quv strategiyalarini o'rgatishda kerakli nazariy bilimlarni berish bilan birga, ularga amaliy mashqlar orqali o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'rganish jarayonini tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Har bir material o'qituvchilarga o'quvchilarni ta'limda yuksaltirish va samarali o'quv strategiyalarini qo'llashda yordam beradi.

Xulosa

O'qituvchining pedagogik shaxsi esa uning muvaffaqiyatli mehnati, kasbiy rivojlanishining zamonaviy ta'lim strategiyalari bilan bog'liqligi va o'qituvchilik mahoratini namoyon etishi, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, muvofiqligi o'quvchilarining erishgan natijalarida aks etadi. Har bir o'qituvchi muvaffaqiyatli o'qitish jarayonini rivojlantirishi uchun o'qitish jarayonida o'zining yaxshi fazilatlarini namoyon qilishi bilan birga zamonaviy o'quv tamoyillarini o'rganishi, o'rgatishi juda muhim hisoblanadi. O'quvchilarini rag'batlantirishi, ularga namuna bo'lishi, o'quv faoliyatiga jiddiy yondashishi, o'rganishni o'zlashtirishini va o'quvchi shaxsini rivojlanish yo'lida tarbiyalashida o'quv strategiyalari imkoniyatlaridan foydalanishi ahamiyatli hisoblanadi.

O'qituvchining qadriyatlari o'quvchilar tomonidan afzal ko'rilgan qadriyatlar sifatida qabul qilinadi, o'qituvchi tomonidan berilgan motiv yoki vositalar ta'lim jarayonini o'quv strategiyalari bilan integratsion tarzda tashkil qilishning dastlabki darajasi hisoblanib, o'qituvchilik mahorati sifatida namoyon bo'ladi, o'qituvchining fuqarolik qadriyatlari sifatidagi xususiyatlari o'quvchilar bilan munosabatiga ta'sir etadi. Bu esa o'quvchilarga zamonaviy o'quv strategiyalarini o'rgatishda o'qituvchilarning muhim imkoniyatlarini namoyon etadi.

ATAMALAR LUG'ATI

Algoritm – berilgan natijaga erishish uchun qilinishi kerak bo'lgan aniq ko'rsatmalar ketma-ketligi. Algoritm keng ma'noda berilgan ko'rsatmalarni bajara oluvchi har qanday narsaga oiddir.

Ijod — insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi.

Pedagogik texnologiya — o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoyitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni.

O'quv material — o'quv vositalari

Everestik—ijodiy faoliyatga xos xususiyat turi

Barkamol— jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga erishgan, voyaga yetgan

Didaktika —pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasi (maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari va tamoyillari), umumiy metod va shakllari haqidagi bo'limi.

Fundamental—1. Asosiy, bosh, eng muhim; 2. Chuqur tekshirilgan, asosli, teran

Tadqiqot—tadqiq ishi, tekshirish, o'rganish ishi

Pedagogika—tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy ji-hatlarini o'rganuvchi fanlar majmui.

Qadriyat—voqe'likdagi muayyan hodisalarning umumin-soniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha.

Kreativlik—ijodkorlik

Strategiya—boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirish san'ati

Konsepsiya—qarashlar, fikrlar yo'nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli.

Model—biror narsaning huddi o'zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko'plab ishlab chiqarish uchun andoza bo'ladigan nusxasi.

Sub'ekt—faol ish-harakat qiluvchi, biluvchi, ong va irodaga ega bo'lgan individ yoki ijtimoiy guruh.

Ishtiyoq—inson xohishi, intilish, zo'r istak

Reyting—o'quvchilar va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash usuli va tizimi

Sintez—predmet va hodisalarni bir butun holda, ularni tashkil etuvchi qismlarning birligi va o'zaro bog'lanishida o'rganadigan ilmiy-tadqiqot usuli;

Prognoz—bo'lajak voqea yoki hodisalarning qanday kechishini, rivojlanishini va oqibatini maxsus izlanishlar, mavjud dalillar va ma'lumotlarga asoslanib, oldindan aytib berish;

Kompitentlili—layoqatli

Innovatsion—yangicha, zamonaviy

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-5712 sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni.24.07.2021 y., 06/21/6268/0700-son
2. Vazirlar mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzliksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-sonli qarori.Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.18.01.2022 y.,09/22/25/0033-son.
3. N.Shodiyev. Pedagogik fikrlar tarixi Samarqand-2020Dowson, Martin., Mcinerney, Dennis M. The development and validation of the Goal Orientation and Learning Strategies Survey (GOALS-S). Educational and Psychological Measurement.2004
4. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari. – T.: "NAVRO'Z" 2019.
5. Wolters.Christopher A. (2003) Regulation of motivation: Evaluating an underemphasized aspect of self-regulated learning. Educational Psychologist. 38, 189-205..
6. Bistari., Hamdani.,Rustam.,Dashela, Tarina.,Mumtazah, Nadia Wardah., Veven.2024. How do elementary school teachers shape their students' self-regulated and creativity in learning mathematics? *nternational Journal of Evaluation and Research in Education*. 10.11591/ijere.v13i5.29296
7. Zare, Javad., Delavar, Khadijeh Aqajani, Derakhshan, Ali.,Pawlak, Mirosław. 2024. The relationship between self-regulated learning strategy use and task engagement. *International Journal of Applied Linguistics (United Kingdom)* DOI10.1111/ijal.12535
8. Hoy, W. K., Tarter, C. J., & Hoy, A. W. (2006). Academic optimism of schools: A force for student achievement. *American Educational Research Journal*, 43(3), 425–446
9. Pintrich, P. R. (2023). Regulating Motivation and Cognition in the Classroom: The Role of Self-Schemasand Self-Regulatory Strategies. *Self-Regulation of Learning and Performance Issues and Educational Applications*. 127 - 154

10. Schunk, D. H. 2023. Self-regulation of self-efficacy and attributions in academic setting. *Self-Regulation of Learning and Performance Issues and Educational Applications* 75 - 100 January
11. Finn B. Miele, David B. Wigfield, Allan. Investigating the Remembered Success Effect With Elementary and Middle School Students. *Journal of Educational Psychology* 2024 DOI 10.1037/edu0000846
12. Zimmerman, Barry J. From Cognitive Modeling to Self-Regulation: A Social Cognitive Career Path_ *Educational Psychologist* July 2013 135 – 147
13. Zimmerman, Barry J., Kitsantas, Anastasia Comparing students' self-discipline and self-regulation measures and their prediction of academic achievement *Contemporary Educational Psychology* April 2014 145 – 155 10.1016/j.cedpsych.2014.03.004
14. Pi, Zhongling, Yang, Yuan, Zhao, Xin Guo, Qiuyi Li, Xiyin(2024) Investigating behavioral and cognitive patterns among high-performers and low-performers in Co-viewing video lectures. *Computers and Education* DOI 10.1016/j.compedu.2024.105110
15. Zimmerman, Barry J. Greenberg, Daphne. Weinstein, Claire E. Self-Regulating Academic Study Time. A Strategy Approach. 2023, DOI 10.4324/9780203763353-8
16. Ye, Wangqiong^a, Scherer, Ronny Blömeke, Sigrid 2024 Teachers' and principals' perceptions of school emphasis on academic success: measurement invariance, agreement, and relations to student achievement. *Large-Scale Assessments in Education* DOI 10.1186/s40536-024-00207-w
17. Österholm, Magnus., Bergqvist, Tomas Liljekvist, Yvonne., van Bommel, Jorrit. Professional development at national scale: Effects on teacher knowledge and practice. *Studies in Educational Evaluation* 2024. 101381 DOI 10.1016/j.stueduc.2024.101381
18. Schmitz, Bernhard., 2024. What teachers can do to enhance students' well-being: Discussion. *Learning and Instruction*. 101980 DOI 10.1016/j.learninstruc.2024.101980

19. Maxwell, S., Reynolds, K. J., Lee, E., Subasic, E., & Bromhead, D. (2017). The Impact of School Climate and School Identification on Academic Achievement: Multilevel modeling with Student and Teacher Data. *Frontiers in Psychology*, 8(2069). <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2017.02069>
20. Ramsey, C. M., Spira, A. P., Parisi, J. M., & Rebok, G. W. (2016). School climate: Perceptual differences between students, parents, and school staff. *School Effectiveness and School Improvement*, 27(4), 629–641. <https://doi.org/10.1080/09243453.2016.1199436>
21. Holzberger, D., & Schiepe-Tiska, A. (2021). Is the school context associated with instructional quality? The effects of social composition, leadership, teacher collaboration, and school climate. *School Effectiveness and School Improvement*, 1–21. <https://doi.org/10.1080/09243453.2021.1913190>
22. Hoy, W. K., Tarter, C. J., & Hoy, A. W. (2006). Academic optimism of schools: A force for student achievement. *American Educational Research Journal*, 43(3), 425–446. <https://doi.org/10.3102/00028312043003425>
23. Sanchez, J. E., Paul, J. M., & Thornton, B. W. (2020). Relationships among teachers' perceptions of principal leadership and teachers' perceptions of school climate in the high school setting. *International Journal of Leadership in Education*, 1–21. <https://doi.org/10.1080/13603124.2019.1708471>
24. McGuire, Jack., De Cremer, David., Van de Cruys, Tim. 2024 Establishing the importance of co-creation and self-efficacy in creative collaboration with artificial intelligence. *Scientific Reports*. 18525 DOI 10.1038/s41598-024-69423-2

PULATOVA MUATTAR KURAKBOYEVNA

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI
O'QITUVCHILARINING O'QUVCHILARGA
O'QUV STRATEGIYALARINI O'RGATISH
KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

“ACCESS SERVICE” nashriyoti

Muharrir: D.Urinbayeva

Texnik muharrir: A.Shakarov

Nashrga tayyorlovchi: Sh.Xujakulov

7982



ISBN: 978–9910–8897–0–7

“ACCESS SERVICE” nashriyoti.

Faoliyat manzili Samarqand shahar, So‘lim shaharchasi,

B.Yalangtush MFY, 128-uy, 74-xonadon.tel.: +998 97-289-89-86

Terishga berildi: 03.04.2025-yil. Bosishga ruxsat etildi: 22.04.2025-yil.

Bichimi 60x84 1/16, “Times New Roman” garniturası.

Bosma tabog‘i 4,5. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 2024/ NI-22

Bahosi kelishilgan narxda. Noshirlik litsenziyasi: № 098355

